

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«BUXGALTERIYA HISOB I VA AUDIT» FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOB I» kafedrasi

«HIMOYAGA RUXSAT ETILADI»
Kafedra mudiri _____prof. R.Xolbekov
«_____» _____2012 y.

**BANKNING KREDIT PORTIFELI VA ULARDA KREDITLAR HISOBINI
TASHKIL QILISH MASALALARI**
(Asaka bank OAJ Sirdaryo viloyati filiali)
mavzusi bo'yicha yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etiladi»
Ilmiy rahbar: _____
dots. Abduvaxidov F
«_____» _____2012 y.

Bajardi: «Buxgalteriya hisobi va audit»
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs
talabasi _____Mullajonov Komil Xusan
o'g'li

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining kredit portfeli va ularda kreditlar hisobining nazariy asoslari.....	8
1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida kredit portfelini shakllantirishning nazariy asoslari.....	8
1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida banklarda kredit operatsiyalarning turlari hamda tasniflanishi.....	15
2-Bob. Asaka bank OAJ Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiyalari hisobini tashkil qilish va uni takomillashtirish masalalari	20
2.1. Bankning Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiyalarini hujjatlashtirish va ularning buxgalteriya hisobi.....	20
2.2. Bankning kredit operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobining hozirgi holati va uni takomillashtirish masalalari	25
2.3. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash tartibi va ularni hisobga olishni takomillashtirish masalalari.....	31
3-Bob. Asaka bank OAJ Sirdaryo viloyati filialida kredit portfeli va kredit operatsiyalarini tahlil qilish hamda uni takomillashtirish masalalari.....	37
3.1. Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiyalari bo'yicha kreditlar portfelining tahlili	37
3.2. Bankning Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiyalari bo'yicha ehtimoliy zahiralarini tuzish va ularning tahlili.....	39
3.3. Bankning kredit resurslari bazasi kredit portfelini shakllantirish	48
Xulosa va takliflar	56
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	60

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilishni chuqurlashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklarning umumiy kapitali, aktivlari va kredit qo'yilmalari, shuningdek, depozit bazasining kattaligi ko'rsatkichlari yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. Bu borada tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bank kreditlaridan foydalanish uchun kredit turlarini joriy etilishi yo'lga qo'yildi.

Bunda, Prezidentimiz Islom Karimov o'z ma'ruzasida "... 2011-yilda depozitlarga 18 trillion so'mdan ortiq, o'tgan yilga nisbatan 36,3 foiz ko'p mablag' jalb qilingani, jumladan, aholi depozitlari 38,8 foizga oshgani ayniqsa e'tiborlidir. Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgarmoqda. Agar 2000-yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlar hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011-yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar – yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va shuning hisobidan taraqqiyotimizni ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir"¹ degan edi.

Mamlakat moliya bozorida raqobatni kuchaytirish, yangi moliyaviy muassasalar tizimini yaratish, ayniqsa, tadbirkorlik sub'ektlari uchun kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida kredit uyushmalarini tashkil etishni kengaytirish masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Respublika bank tizimi mamlakatimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, xalq farovonligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli davom ettirish ishiga o'zning munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Biroq, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bankning kredit portfeli va ularda kreditlarning buxgalteriya hisobi hamda tahlilning ahamiyati sezilarli

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2011-йилнинг асосий якунлари ва 2012-йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. ("Халқ сўзи" газетаси, 2012 йил 20 январь, №14 (5434)).

darajada muhimdir. Bunda tijorat banklari nafaqat sub'ektlarni kreditlash balki, ushbu resurslardan kutiladigan natijani buxgalteriya hisobi va taxlil orqali nazorat qilishni taqozo etadi. Shu boisdan, inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda banklarning kredit portfeli va ularda kreditlarning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'yimoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, banklarning banklarning kredit portfeli va ularda kreditlar hisobini takomillashtirish masalalari mazkur bitiruv malakaviy shining dolzarbligini belgilab beradi.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Bankning kredit portfeli va ularda kreditlar hisobini tashkil qilish masalalari bilan Rossiyalik iqtisodchi olimlar Belotserkovskiy V. Kamordjanova N. Parfyonov K. Bank V. Kozlova E. Nikolaevna, Z. Shirinskaya, T. Nesterova, V. Kolesnikov, L. Krolivetskaya, shuningdek, Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A. Ibragimov, N. Jo'raev, A. Qodirov, M. Nurmurodov, Sh. Abdullaeva, S. Norqobilov, Z. Mamatov, F. Abduvaxidov, Z. Umarov, I. Murugova, N. Navro'zova va boshqalarning ilmiy ishlanmalari, hamda o'quv adabiyotlarida o'z ifodasini topgan.

Albatta, yuqoridagi barcha iqtisodchi olimlarimizning ilmiy ishlari, ham nazariy ham uslubiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lsada, banklarning kredit portfeli va ularda kreditlar hisobini tashkil qilishda muhim ahamiyatga egadir. Biroq, tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini yuritish va ularning tahlilini xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil qilishda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimiz banklarining jahon iqtisodiyotiga yanada keng integratsiyalashuvi jarayonida vujudga kelayotgan o'zgarishlarning inobatga olinmaganligidan dalolat beradi. Shu boisdan, mazkur mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyati tug'ildi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bankning kredit portfeli va ularda kreditlar hisobini takomillashtirish yuzasidan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

–iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida banklarning kapital-lashuvi va investitsiyaviy faolligini oshirishning asosiy vazifalarini o'rganish hamda tahlil qilish;

–iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarida kredit operatsiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish;

–iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida kredit operatsiyalarining turlari va ularning shakllarini aniqlash;

–tijorat banklarida kredit operatsiyalarini hujjatlashtirish va ularning buxgalteriya hisobini tashkil qilish amaliyotini o'rganish;

–tijorat banklarida kredit operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobining hozirgi holatini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha fikrlar berish;

–Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash tartibini o'rganish va ularni hisobga olishni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

–tijorat banklarida kredit operatsiyalari faoliyatini tahlil qilish uslubini o'rganish;

–tijorat banklarida kredit operatsiyalari bo'yicha ehtimoliy zahiralarni tuzish manbasini aniqlash va ularni tahlil qilish metodikasini o'rganish;

–iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bankning kredit resurslari bazasi va kredit portfelini shakllantirish masalalarini hal etish bo'yicha takliflar kiritishdan iboratdir.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, Asaka bank OAJ Sirdaryo viloyati filialida kredit portfeli va ularda kreditlar hisobini o'rganish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Asaka bank OAJ Sirdaryo viloyati filialida bankning kredit portfeli va ularda kreditlar hisobini tashkil qilish tizimi faoliyati hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining natijalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida banklarning kapitallashuvi va investitsiyaviy faolligini oshirishning asosiy vazifalari o'rganildi hamda tahlil qilindi;

–iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarida kredit operatsiyalarini amalga oshirish va ularning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilindi;

–iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida kredit operatsiyalarining turlari va ularning shakllari aniqlashtirildi;

–tijorat banklarida kredit operatsiyalarini hujjatlashtirish va ularning buxgalteriya hisobini tashkil qilish amaliyoti o'rganildi;

–tijorat banklarida kredit operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobining hozirgi holati tahlil qilindi va uni takomillashtirish bo'yicha fikrlar berildi;

–Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash tartibi o'rganildi va ularni hisobga olishni takomillashtirish yuzasidan takliflar berildi;

–tijorat banklarida kredit operatsiyalari faoliyatini tahlil qilish uslubi o'rganildi va qulay usullardan foydalanish taklifi berildi;

–tijorat banklarida kredit operatsiyalari bo'yicha ehtimoliy zahiralarni tuzish manbasi aniqlashtirildi va ularni tahlil qilish metodikasi o'rganildi;

– iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bankning kredit portfeli va ularda kreditlar hisobini tashkil qilish masalalari bo'yicha takliflar kiritildi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bankning kredit portfeli va ularda kreditlar hisobini tashkil qilishga asos bo'luvchi qonuniy hujjatlari, Prezidentimiz farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlari, banklar faoliyatiga oid Moliyaviy hisobotning xalqaro andozalari (MHXA), banklarda buxgalteriya hisobi va tahlilini tashkil qilish bo'yicha mamlakatimiz hamda xorijlik iqtisodchi olimlarning asarlari manba bo'lib hisoblandi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ishda bildirilgan fikr-mulohazalar iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bankning kredit portfeli va ularda kreditlar hisobini takomillashtirishga nazariy jihatdan ko'mak beradi. Bu o'z navbatida, buxgalteriya hisobini yuritishda ma'lumotlar ba'zasini shakllantiradi va

tahlil qilishda zaruriy axborotlar bilan ta'minlaydi hamda tijorat banklarining moliyaviy faoliyat jarayonlarining samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Ishning tarkibiy tuzilishi. Kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar royxatidan iborat.

1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining kredit portfeli va ularda kreditlar hisobining nazariy asoslari

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida kredit portfelini shakllantirishning nazariy asoslari

Kredit-bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Respublikamiz bank amaliyotida kreditlash shakllaridan keng foydalanish mijozlarning kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirishga, banklarning kredit operatsiyalari ko'lamini kengaytirishga, kredit riskini ma'lum darajada minimallashtirishga va nihoyat, banklarning kredit operatsiyalaridan oladigan daromadlari oshishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1317-sonli Qaroriga asosan² ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta yangilash bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tijorat banklarining ishtirokini yanada faollashtirish maqsadida 2010 yilda jami 3,2 trln. so'mlik kredit resurslarini ajratish belgilab berilgan. 2010 yilda tijorat banklari tomonidan korxonalar va tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga yo'naltirilgan investitsion kreditlarning miqdori 3,1 trln. so'mni tashkil etib, yillik rejaning 96 foizi bajarildi.

So'nggi yillarda banklarning kredit va investitsiya faoliyatida ham ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bank aktivlari 2009 yilga nisbatan 32,1 foiz o'sib, 20,7 trln. so'mdan oshib ketdi. Hisobot yilida iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi 35 foizga ko'payib, bugungi kunda ularning miqdori 11,5 trln. so'mdan oshib ketdi. Shunisi e'tiborga loyiqki, 2010 yilning oxiridagi holat bo'yicha ichki manbalar hisobidan berilgan kreditlarning tijorat banklari umumiy kredit portfelidagi yalpi ulushi 85,1 foizni tashkil etdi.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 6 апрелдаги “Банк тизимининг молиявий барқарорлигини янада ошириш ва инвестициявий фаоллигини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1317-сонли Қарори

Banklarning kredit portfeli – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi:

- a) yaxshi;
- b) standart;
- v) substandart;
- g) shubhali;
- d) umidsiz.

Tijorat banklarining ma'lum sanaga ssuda hisobvaraqlarida qolgan pul mablag'lari majmuasi (qoldig'i).

Banklarning kredit portfeli tarkibida ham sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Umumiy kredit portfelida uzoq muddatli, ya'ni 3 yildan ortiq muddatga beriladigan investitsiya kreditlarining ulushi 2000 yilning oxiridagi 35 foizdan 2010 yilning oxirida 75,2 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1166 qaroriga binoan tijorat banklariga quyidagi imtiyozlar berildi³:

–2015 yilning 1 yanvarigacha tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha foyda solig'ini to'lash;

–Tijorat banklariga korxona va tashkilotlar - yirik investitsiya loyihalari tashabbuskorlariga loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ularni investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun qabul qilishda umuman loyihani moliyalash uchun beriladigan kreditning umumiy summasiga kiritgan holda, ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xarajatlarni moliyalashga kreditlar berishni amaliyotga tatbiq qilish.

Kreditlash bank ishining o'zagi bo'lib, uning sifatiga qarab bankning faoliyati to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Bunda, asosan, kreditlarni boshqarish jarayonining asosiy ahamiyat kasb etishiga sabab shuki, uning sifati bank ishining

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.07.2009 й. (N ПҚ-1166) “Тижорат банкларининг инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришга йўналтириладиган узоқ муддатли кредитлари улушини кўпайтиришни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Қарори.

samradorligiga bog'liqdir. Iqtisodchilar tomonidan jahon banklarining sinishi sabablarini tadqiq qilish shuni ko'rsatayaptiki, asosan, banklarning sinishiga sabab – bank aktivlari sifatining pastligidir.

Kreditning sifati kreditlash jarayonini boshqarishga bog'liq bo'lib quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi⁴:

- tijorat bankida mukammal ishlab chiqilgan kredit siyosati kreditlashtirish jarayonining mavjudligi;

- kredit portfelini optimal boshqarishning yo'lga qo'yilganligi;

- kreditlarni muntazam nazorat qilishning tashkil qilinganligi;

- bank tizimida ishlaydigan xodimlarning tayyorgarlik darajasi.

“Kredit siyosati” hujjatli kreditlarni boshqarish jarayonining poydevorini tashkil etadi. Tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd etilgan “Kredit siyosati” kreditlarni oqilona boshqarishning samarali yo'llaridan hisoblanadi. Ushbu hujjat bankning kreditlashtirish faoliyatining andozalari va parametrlarini belgilab beradi. Ushbu belgilangan standartlar va parametrlardan kredit berish, qarzlarni hujjatlashtirish va boshqarish bo'yicha ma'suliyatli bo'lgan bank xizmatchilari qo'llanma sifatida foydalanishlari lozim. Kredit siyosati bank boshqaruvi a'zolari, qonun chiqaruvchi, strategik qaror qabul qiluvchi shaxslarning xatti-xarakatini belgilab beradi hamda ichki va tashqi auditorlarga bankda kreditlarni boshqarish darajasining o'tish davrida, moliyaviy bozorlarga davlatning ta'siri kamaygan sharoitda, tijorat banklari ichki siyosatini o'zlari ishlab chiqishni keskin faollashtirishlari lozim.


Amaldagi Nizom⁵ga asosan bankning kredit siyosatiga quyidagicha ta'rif beriladi: “Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlari kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir”. Kredit

⁴ Ф.Абдуваҳидов. Тижорат банкларида бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. “Иқтисодиёт” нашриёти.-Т.: 2010й, 224 бет

⁵ ЎзР МБининг “Тижорат банклари кредит сиёсатига қўйиладиган талаблар тўғрисида”ги Низом. 2000 йил 2 март

siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.

Shunday qilib, tijorat banklarining faoliyati siyosati quyidagi asosiy elementlardan tashkil topgan (1-chizmaga qarang).



1-chizma. Tijorat banklari siyosatining elementlari

Tijorat banklarining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarining kredit berish, bankning kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq, ob'ektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi. Kredit siyosatini to'g'ri tuzish va olib borish, barcha bo'limlar tomonidan bu siyosat maqsadining aniq tushinilishi bank boshqaruviga kredit standartlarini to'g'ri olib borishiga, yuqori risklardan qochishga, bank imkoniyatlarini to'g'ri aniqlashga asos hisoblanadi. Yaxshi ishlab chiqilgan kredit siyosati kredit riskini boshqarish va uni kamaytirishga yaxshi imkon beradi.

Bankning kredit siyosati uning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarning oldini olishga, buning uchun depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbatning, bank majburiyatlari bilan kapitali o'rtasidagi va boshqa ko'rsatkichlarning me'yorida bo'lishini taqazo qiladi. Oqilona kredit siyosati beriladigan kreditlarning sifatini oshiradi. Shuning uchun kredit siyosatining asosiy

maqsadi boshqaruv jarayoni, fondlarning etarliligi, risklarni sifat darajasi bo'yicha turkumlari, kredit portfelining balansi, majburiyatlarning tarkibiy qismlarini ajratish kabi elementlarini o'zichiga olmog'i lozim. Bank kredit siyosatining mazmuni quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish (kredit turlari, qoplash muddatlari, miqdori va sifati) bilan bog'liq masalalar;

- bank raisining kredit faoliyati uchun javob beradigan o'rinbosari, kredit qo'mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro'yxati (eng ko'p kredit summasi va turlari);

- bankning kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo'yicha jami majburiyatlari;

- kredit arizalari bo'yicha tekshirish va qaror chiqarish tizimi bayoni;

- kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida albatta saqlanadigan hujjatlar ro'yxati (qarzdorning moliyaviy hisoboti, kredit shartnomasi, garov, kafolat haqida shartnoma va hokazolar);

- kredit ishlari saqlanishi va tekshirilishi uchun kim javobgarligi, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar;

- kreditning ta'minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;

- barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me'yorlar bayoni;

- eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko'rsatish (ya'ni kredit summalari va bank yalpi aktivlarining eng yuqori nisbati);

- bank xizmat ko'rsatadigan mintaqa, kredit qo'yilmalarining asosiy qismi joriy etiladigan tarmoq, iqtisodiyot sohasi yoki sektori;

- muammoli kreditlar tarkibi va tahlili, bunda muammolarni qanday hal etilishi ehtimollari ko'rsatiladi;

Kredit siyosati sifatiga va xolatiga qarab bank jalb qilgan resurslarini to'g'ri joylashtirish va oldindan ko'zlangan daromad olish imkoniyati yaratiladi. Har qanday tijorat banki kredit siyosatining maqsadi quyidagilardan iborat bo'lishi

lozim:

- kredit qo'yilmalari hajmining o'sishini,
- risk yuqori bo'lgan operatsiyalarning odilona diversifikatsiyasini,
- qisqa va uzoq muddatli kredit qo'yilmalar hajmini keskin ko'paytrish va ularning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi⁶.

Shuningdek, kredit siyosati investitsion kreditlar salmog'ini oshirish, ustun darajada iqtisodiyotning real sektorini kreditlash, ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi asosiy yo'nalishlarni ham o'z ichiga qamrab olgan bo'lishi lozim.

Kredit siyosati bankning o'ziga xos “kredit tili”ni yaratadi va u bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qat'iy siyosat asosida berilgan bank umumiy kreditlash faoliyatining rivojlanishi va kreditlarning samarali ishlatilishi uchun zamin yaratadi. Kredit siyosati qoidalariga rioya etish bankning asosiy maqsadlari: foyda olishni ta'minlash, risklarni boshqarish bank faoliyati me'yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Kredit siyosatining mavjudligi, eng muhimi – barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, uning qarzidorlari va aktsiyadorlari foydasini ko'paytiradi va faravonligini oshiradi. Aniq bir tijorat bankining kredit siyosatida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilarni belgilab olinishi lozim deb hisoblaymiz:

- kredit risklari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash,ularni baxolash va bartaraf etish;
- qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy axvolini aniqlash kredit riskini bashorat qilish;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash va ularni so'ndirish choralarini ishlab chiqish;

⁶ Климович В.П. Основы банковского аудита: учеб. Россия . - М.: ФОРУМ, 2010. – 192 с.

–kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidligini va daromadlilikini ta'minlash;

–kredit olgan mijoz bilan doimo aloqada bo'lib turish;

–kichik va o'rta tadbirkorlikni, dehqon va fermer xo'jaliklarni moliyaviy qo'llab quvvatlashdan iborat.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim, kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida raxbariyatga xabar berio'lari lozim. Qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek, bank Boshqaruvi av Kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Kredit siyosatida qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Raxbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kreditlash jarayonida bank siyosati bank oldidagi majburiyatlarni bajara oladigan mavjud yangi mijozlarni kredit resurslari bilan ta'minlash, sinf darajasidagi kreditlarni taqdim etishni kengaytirish hisoblanadi. Tijorat banki foydaliligini hisobga olgan holda xalqaro standartlar miqyosida mijozlarga sifatli kredit xizmatini taqdim etishga intiladi. SHuning uchun bank kredit siyosatini asosiy tamoyillariga quyidagilar kiritilgan:

–kreditlash to'g'risida qarorlar qabul qilishning barcha darajalari bo'yicha javobgarlikni taqsimlash;

–bank tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari uchun aniq belgilangan shartlarning mavjudligi;

–maxsus kreditlash tamoyillari – muddatlilik, to'lovlilik, qaytarib berishlilik, ta'minlanganlik va rentabellik asosida beriladigan kreditlarni majburiy nazorat qilish;

–bank boshqaruvining umumiy siyosati bilan maxsus faoliyat yo'nalishlari siyosati (ya'ni depozitlar bo'yicha, investitsiya bo'yicha, aktivlar va passivlarni boshqarish bo'yicha va hokazo)ning uzviy bog'liqligidir.

1.2.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida banklarda kredit operatsiyalarning turlari hamda tasniflanishi


Kredit operatsiyalari (lotincha «creditum» - ssuda degan ma'noni anglatadi.) deganda shartlar asosida, ya'ni qaytarishlilik muddatlilik va to'lovlilik shartlari asosida ma'lum bir s miqdordagi pulni qarzga berish tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, qarzdor qarzni belgilangan muddat ichida qaytarib berishi va undan tashqari ma'lum summani to'lashi lozim. Bu summa qarzga olingan mablag'lar uchun to'lov bahosi bo'lib, u kredit uchun foiz deb ataladi. Odatda, zamonaviy bank kreditni pul shaklida qarzga beradi.

Bank o'z tabiati jihatidan moliya-kredit tashkiloti bo'lib, uning uchun kredit operatsiyalari, bank xizmatlarinig bir ko'rinishi hisoblanib, u boshqa bank operatsiyalari ichida asosiy o'rin egallaydi.

Bank o'z kredit operatsiyalari uchun faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan pul mablag'larini ishlatmay, balki bunday pul mablag'larining manbalarini shakllantirishdan hosil bo'lgan pul mablag'larini ham ishlatadi. Bunda boshqa tijorat banklaridan olingan kredit bilan bir qatorda, bank shuningdek pul mablag'larini o'z omonatchilaridan va tashkilotlardan turli hisob varaqlarga jalb etadi. Bu erda mablag'lar saqlanadi va turli xil hisob-kitoblarda qo'llaniladi. Bunday, pul mablag'larni jalb etish ham kredit xarakteriga ega, chunki u ham qaytarishlilik muddatlilik va to'lovlilik shartlariga asoslanadi, bank esa bu erda qarzdor sifatida namoyon bo'ladi (2-chizmaga qarang).

Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlarining ikki sub'ekti - bank va qarz oluvchining o'zaro majburiyatlari hamda manfaatlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Kreditor sifatida banklarning olib boradigan faoliyati ular uchun me'yoriy bo'lgan hujjat kredit siyosatida o'z aksini topadi. Tijorat banklari kredit siyosatini

mustaqil tuzadilar. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda, o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlash faoliyatining muhim tomoni hisoblanadi.



2-chizma. Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini amalga oshirish bosqichlari

Jahon amaliyotida bank kreditlarini yagona, umumlashgan tasnifi yo'q, chunki kreditlarni turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida ssudalarni berish va qaytarish tarixan shakllangan usullariga bog'liq bo'ladi. SHunday bo'lsa ham eng ko'p uchraydigan bank kredit operatsiyalarini turli xil mezonlar va o'lchovlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtirish mumkin. Bank kredit operatsiyalarini quyidagi mezonlari bo'yicha tasniflanadi⁷:

1. Bank kreditlarini qarz oluvchilarning guruhlari bo'yicha tasniflanishi mumkin: Bank kreditlarini oluvchilari bo'lib hukumat, boshqa banklar, xo'jalik sub'ektlari, turli moliya tashkilotlari, aholi hisoblanadi.

2. Kreditlar maqsadi yoki qaysi sohaga yo'naltirilishi bo'yicha: sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, investitsion, iste'mol va boshqa kreditlarga bo'linadi.

3. Bank kreditlari ishlatilishi sohasi bo'yicha 2 xil bo'lishi mumkin: asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun yoki aylanma kapitalni moliyalashtirish uchun ssudalar beriladi. Bular o'z navbatida ishlab chiqarish yoki muomala sohasiga

⁷ Ф.Абдувахидов. Тижорат банклари бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма.. –Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 120 б.

yo'naltiriladigan kreditlarga bo'linadi. Inflyatsiya sharoitida tijorat banklari amaliyotida savdo va chayqovchilik operatsiyalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan ssudalar aksariyat qismni tashkil etadi.

4. Hajmi bo'yicha kreditlar katta va kichiklarga bo'linadi. Lekin xalqaro amaliyotda bu kreditlarni belgi bo'yicha yagona o'lchov (mezon) i yo'q. XVF, ETTBning nuqtai nazaridan 10000 AQSH dollarigacha bo'lgan summadagi kreditlar kichik kreditlarga kiradi.

5. Qaytarish muddati bo'yicha kreditlar talab qilinguncha va muddatli bo'ladi. Muddatli kreditlar qisqa va uzoq muddatlilarga bo'linadi. Ssudalarni bu mezon bo'yicha turli mamlakatlarda farqlanadi. Aksariyat banklar. asosan qisqa muddatli va uzoq; muddatli kredit berish bilan shug'ullanadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Qaytarish muddati bo'yicha kreditlarni tasniflash

Muddati bo'yicha	Rossiya	AQSH	Buyuk-Britaniya	Frantsiya	O'zbekiston
Qisqa muddatli	1 yilgacha	1 yilgacha	3 yilgacha	1 yilgacha	1 yilgacha
Uzoq muddatli	3 yildan ortiq	6 yildan ortiq	10 yildan ortiq	7 yildan ortiq	3 yildan ortiq

6. Ta'minlanganligi bo'yicha kreditlar ta'minlanmagan va ta'minlangan kreditlarga bo'linadi. Ta'minlangan kreditlar ta'minlanganlik xarakteriga qarab garovli, kafolatlangan, sug'urtalangan va hokazolarga bo'linadi. Ta'minlanmagan kreditlar ishonchli deb ham ataladi va odatda faqat solo-veksel orqali takdim etiladi. Ta'minlanmagan kreditlar qarz oluvchiniig obro'sini hisobga olgan holda va uning daromadlari darajasini baholashdan so'ng'ina beriladi. Kreditning sifati past bo'lganda ham u ta'minlanmagan kredit deb yuritiladi va bunda kreditlar bo'yicha kreditning qaytmaslik xatari yuqori bo'ladi.

7. Berilish usullari bo'yicha kreditlar, qoplash uchun va to'lov kreditlarga bo'linadi. Birinchi holatda kredit qarz oluvchining hisob-varag'iga xarajatlarni qoplash uchun o'tkaziladi. Bunda yana avans harakteridagi ssuda mablag'larini

o'tkazilishi ham nazarda tutiladi. Ikkinchi holatda bank ssudasi bevosita naqd pulsiz hisob-kitoblarda hisob hujjatlarini to'lash uchun beriladi.

Shu bilan birga, bir martalik kreditlar ham bo'ladi, ya'ni shartnomada belgilangan muddat va summada taqdim etiladi. Biroq ko'pchilik mamlakat-larda kredit liniyalari keng qo'llaniladi.

8. Bank kreditlarini qaytarilish tartibi bo'yicha 2 guruxga ajratish mumkin. Birinchi guruxga bir vaqtda qaytariladigan kreditlar, ikkinchi guruhga bir necha muddatda bo'lib-bo'lib to'lanadigan kreditlar kiradi. Odatda yuridik shaxslar va aholiga joriy ehtiyojlarni qoplash uchun naqd pul mablag'lari kerak bo'lganda beriladigan qisqa muddatli kreditlar, bir vaqtda qaytariladigan kreditlar hisoblanadi. Bu erda asosiy qarz va foizlarni yagona summada kredit muddati tugashi bilan qaytariladi. Bir necha muddatda qaytariladigan kreditlar bu ikki yoki undan ortiq to'lovlar bilan amalga oshiriladigan ssudalar hisoblanadi. Bu guruhga turli xil kreditlar: tijorat, ochiq schyot bo'yicha, veksel, lizing, faktoring, forfeiting va boshqalar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda bir kecha muddatda qaytariladigan kreditlar yuridik va jismoniy shaxslarga tovarlar va ko'chmas mulklarni sotib olish uchun beriladigan o'rta va uzoq muddatli kreditlashda keng qo'llaniladi. Jahon moliya bozorlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kreditlar bir necha muddatlarda qaytarish sharti bilan beriladi.

9. Foiz stavkalarining turlari bo'yicha bank kreditlarini 2 turhga bo'lish mumkin: qat'iy foizlardagi kreditlar va suzuvchi foiz stavka-laridagi kreditlar. Ssudalar kreditlashning butun muddatiga beriladigan va qayta ko'rib chiqilmaydigan qat'iy foiz stavkalari shartlarida berilishi mumkin. Qarz oluvchi bu holatda foiz stavkalari bozorlarida kon'yuktura o'zgarigiiga qaramasdan kreditdan foydalanganligi uchun o'zgarmas kelishilgan stavkada foiz to'laydi. Bu ham kreditorga, ham qarz oluvchiga qulay, chunki ikkala tomon ham berilgan kreditdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan o'z daromad va xarajatlarini to'g'ri hisoblab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qat'iy foiz stavkalari odatda qisqa muddatli

kreditlashda qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda kreditlarni berishda qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavkalarining har ikkalasi ham keng qo'llanilmokda. Suzib yuruvchi foiz stavkalari -bu kredit bozorlarida vujudga keladigan holatlarga bog'liq bo'lgan doimiy o'zgaradigan foiz stavkalaridir.

10. Kredit qaysi valyutada berilishiga qarab ham guruhlariga bo'linadi. Odatda tijorat banklari kreditlarni milliy valyutada yoki chet el valyutasida berishi mumkin. O'zbekistonda millim valyuta va chet el valyuta-sidagi kreditlar ko'p qo'llanilmokda.

11. Kreditlar soni bo'yicha kreditlar quyidagi guruhlariga bo'linishi mumkin: yagona bank beradigan kreditlar; sindikatlashgan kreditlar; parallel kreditlar. Amaliyotda bir bank tomonidan beriladigan ssudalar keng tarqalgan. Biroq ayrim mamlakatlar va integratsion guruhlar iqtisodiyotning rivojlanish imkoniyatiga qarab yagona bank imkoniyati etmaydigan yirik kreditlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa banklarning guruhlariga qo'shilib sindikatlashgan kredit berishga undamoqda.


Sindikatlashgan kredit - bu birlashgan 2 yoki undan ortiq kreditorlar bir qarzdorga kredit taqdim etadi. Bir guruh bank-kreditorlar ma'lum muddatga bo'sh turgan moliyaviy resurslarini ma'lum bir ob'ekt yoki qarzdorni kreditlash maksadida birlashtiradi. Bir yoki etakchi bank-koordinatrlarning katta bo'lmagan bir guruhi butun sindikat nomidan qarz oluvchi bilan kredit bitimi shartlari bo'yicha muzokaralar olib boradi, kerakli summa yig'ishini ta'minlaydi. Amaliyotda ikki yoki undan ortiq banklar qarz oluvchiga parallel kreditlar berish holatlari ham bo'lishi mumkin. Sindikatlashgan kreditdan farqli o'laroq, bu holatda mijoz bilan har bir bank alohida ish olib boradi, so'ngra esa umumiy kredit shartnomasini tuzadilar.

Shunday qilib, tijorat banklarining kreditlari qaysi belgilarga karab tasniflanmasin, ularni berishdan maqsad mijozning mablag'ga bo'lgan ehiyojini qondirgan holda bankka yuqori daromad keltirishini ta'minlashdan iborat.

2-Bob. Asaka bank OAJ Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiyalari hisobini tashkil qilish va uni takomillashtirish masalalari

2.1. Bankning Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiyalarini hujjatlashtirish va ularning buxgalteriya hisobi

Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan va adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan yo'riqnoma asosida amalga oshiriladi⁸. Kreditni berish va hujjatlashtirish tartibi hozirgi paytda markazlashtirilmagan va u banklar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Lekin amaliyotdan ko'rsatilishicha, kreditlashning umumiy ishlab chiqilgan tartibi hamon mavjud bo'lib, unga barcha tijorat banklari amal qiladilar. Bunday tartibni shartli ravishda muhim chizma ya'ni kreditlashning asosiy umumiy chizmasi tariqasida tasviralash mumkin (3– chizmaga qarang).



3-chizma. Bankning Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiyalarini amalga oshirish bosqichlari

Kredit olish uchun ariza, qarzдор kredit xizmatlaridan foydalanish uchun munosib bankni tanlagandan so'ng rasmiylashtiradi va taqdim etiladi. Bunda mijoz

⁸ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан тасдиқланган ва адлия вазирлигидан рўйхатдан ўтган «кредитлаш тартиби тўғрисида»ги йўриқнома. –Т.: 2004й.

bankning kredit salohiyati hajmini, uning passivlari, bankning ishonchlilik darajasini, bankning ta'sischi tarkibi, uning tarmoq harakteri va u yoki bu operatsiyalarga moslashuvi va ixtisoslashuvi shuningdeq kredit bo'yicha summa, foiz va kredit muddatlarini inobatga olishi mumkin. Bu kabi axborot manbalari sifatida ochiq muhr, shuningdeq bank mijozlari bilan norasmiy shartnomasi bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy nobarqarorlik va doimiy ravishdagi kredit qaytarilmasliklar sharoitida banklar kreditni shu bankda hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan qarzdorlarga berishni ma'qul ko'radilar, bu esa qarzdor tomonidan bankni tanlash imkoniyatini cheklaydi.

Bank qarzdorni tanlagandan so'ng, qarzdor arizani rasmiylashtiradi va unda ma'lum miqdordagi kredit summasi, muddati va maqsadlarini belgilaydi. Ariza qarzdor-tashkilot rahbarining imzosi va bot buxgalter imzosi bilan tasdiqlanishi kerak. Bunday ariza kreditlashning quyidagi bosqichlarini amalga oshirish uchun asos bo'ladi. Kreditga layoqatlilikni baholash uchun bank mijozdan o'tgan davrdagi hisoboti hujjatlarni (hisobot, buxgalteriya balansi ilovasi bilan kvartal va yillik uchun) talab qiladi, ko'rsatkichlarni yanada aniqroq tekshirishga ehtiyoj tug'ilganda boshlang'ich buxgalteriya hujjatlari va agar mumkin bo'lsa uzoq muddatli hisobotlar talab qilinadi.

Kreditga layoqatsizlik xatarini oldindan ko'ra bilish ko'pincha oson kechmaydi, chunki kerakli paytda mijozning faoliyatida kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Bu qiyinchiliklar mijozning qobiliyatsizligi tufayli uning mol etkazib beruvchilari, xaridor va boshqa tashqi omillarning xatosi va muammosi bunga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun bank kredit operatsiyalarining har bir turi kreditning qaytmaslik xatari bilan bog'liq bo'ladi. Bunday xatarni pasaytirish uchun bank bo'lajak mijozning mavjud o'tgan moliyaviy ahvoli bo'yicha kreditga layoqatliligini baholab, salbiy tomonlarni oldindan bilishga, mijozning kelajak muammolarini ko'rishga intiladi. Qisman bu potentsial mijozning hisobot va balansini tahlil qilishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari alohida bir kredit muassasa singari o'zining kredit siyosatiga ega. Ya'ni har bir bank o'zining bo'sh to'rgan mablag'larini o'zi xohlagan yo'nalishga, ko'proq daromad olishga yo'naltiradigan bo'ldi.

Mijoz ssuda olish uchun bankka belgilangan tartibda hujjatlar paketini rasmiylashtirib topshirganidan keyin kredit kommisiyasining qaroriga ko'ra kredit berish lozim deb topilib, bank va kredit oluvchi o'rtasida imzolangan kredit shartnomasiga asosan mijozga kredit beriladi. Buning uchun mijozga alohida ssuda hisobvarag'i ochiladi. Ushbu hisobvaraqlarning debetida mijozlarga ssudalar beriladi. Bank tomonidan berilgan ssudalar qaytarilganda yoki muayyan ssudaning maqomi o'zgarishi munosabati bilan boshqa turga o'tkazilayotganda va ushbu ssudalar bo'yicha ko'rilgan zarar qoplanayotganda tegishli ssuda hisobvaraqlari kreditlanadi. Berilgan ssudalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun zahiralar bankning harajatlari hisobidan yaratiladi. Ushbu zahiralar qarzdorning moliyaviy holatini berilgan ssudaning ta'minlanganligi va qaytmaslik xatarlari baholash natijasida yaratiladi.

Demaq bankning Sirdaryo viloyati filialida ssuda operatsiyalarini olib borish uchun quyidagi ssuda hisobvaraqlari ochilgan.

12100-boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

12300-hukumatga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

12500-jismoniy shaxslarga va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan shaxslar beriladigan qisqd muddatli ssudalar

12100-davlat korxonalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

12900-qo'shma korxonalarga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

13100-xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan kiska muddatli ssudalar.

Bu asosiy hisobvaraqlarning debet tomonida tegishli bank korxona, tashkilot, jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar, kredit tomonida ularning qaytarilishi aks etadi. Yuqoridagi hisobvaraqlarning barchasi bir qator ikkinchi

tartibli hisobvaraqlarni o'z ichiga olib, ularda muddatli, muddati o'tgan, qayta ko'rilayotgan ssudalar bo'yicha alohida-alohida hisob yuritiladi.

Agar xarid qilingan tovarning haqini darhol to'lash lozim bo'lsa, lekin buning uchun firmaning o'z mablag'i etmasa, bunday hollarda firmada bir martalik qarz mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bu ehtiyojni qondi-rish uchun "kredit liniyasi ochilmagan" ssuda hisob varag'idan foydalani-ladi. Bunday hisob varaqdan kredit berish bir marta ssuda berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday ssudaning har biri bo'yicha bank alohida qaror qabul qiladi.

Korxona va tashkilotlarga yoki alohida olingan jismoniy shaxslarga ssuda hisob varag'i ochilgandan so'ng ular bo'yicha ssudaning berilishi va qaytarilishi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Har bir ssudaning berilishi kredit kommissiyasi farmoyishi asosida amalga oshiriladi, ya'ni kredit bo'limiga mijozga ssuda berish to'g'risidagi farmoyishini hisob operatsion bo'limi mas'ul ijrochilariga beradilar. Mas'ul ijrochilar farmoyishda ko'rsatilgan rekvizitlar asosida ssuda berish bo'yicha buxgalteriya provodkalarini bajaradilar. Ssuda hisobvaraqlarining muddatli, muddati o'tgan, qayta ko'rilayotgan kabi ssudalar bo'yicha alohida yuritiladi.

Bankning Sirdaryo viloyati filiali tomonidan berilgan kreditlar miqdori 115 113 ming AQSH dollarini, bank aktivida ularning salmog'i 40,8 foizga ettgan va uzoq muddatli kreditlar ulushi barcha qo'yilmalar hajmining 41 foizni tashkil etadi. Mijozlarga berilgan kreditlardan muddati o'tgan qarzlar salmog'i ssudalar bo'yicha umumiy qarz hajmining 0,2 foizini, kredit operatsiyalari natijasida ezaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun 7 348 ming AQSH dollari hajmida zahira fondi tashkil etildi.

Bankning Sirdaryo viloyati filiali tomonidan 2011 yil yanvar holatiga mijozlari uchun berilgan kreditlar tarkibi (foizda) quyidagicha bo'lgan:

82,45 % avtomobilsozlik sanoati va u bilan bog'liq sohalar;

7,05 % jismoniy shaxslar uchun;

6,96 % avtoservis xizmati uchun;

2,05 % savdo sohasiga;

1,49 % boshqa sohalarga⁹.

Xususiy korxonalarga va nodavlat korporatsiyalariga berilgan „Qisqa muddatli ssudalar“ nomli balans hisobvarag’i ochiladi. Bu hisobvaraq bir qator subhisobvaraqlarni o’z ichiga oladi.

13101-"Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar."

13105- "Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan muddati o’tgan ssudalar."

13109- "Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli, shartlari qayta ko’rib chiqiladigan ssudalar."

Ssuda berilayotganda korxonaning xisob-kitob hujjati to’lanayotgan bo’lsa, pul o’tkazilishi lozim bo’lgan mol sotuvchi yoki xizmat ko’rsatgan korxona hisobvarag’iga ssuda summasi o’tkaziladi. Pul tushirilishi lozim bo’lgan korxonaga boshqa bank bo’limi xizmat ko’rsatsa ssuda-summasi ssuda berayotgan bankning vakillik hisobvarag’i orqali tegishli bankga o’tkaziladi va quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

D-t 13101—«Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar»,

K-t 16101-«Bankning vakillik hisob varag’i yoki 20200 «Mijoz-ning hisobvarag’i».

16103 -hisobvarag’ida bank tomonidan xususiy firmalar shirkatlar va jamoa xo’jaligi hamda korxonalari nodavlat korporatsiyalar va shu kabi xususiy mulkchilik shakliga ega bo’lgan korxonalarga berilgan qisqa muddatli ssudalarning hisobi yuritiladi. Bu hisobvaraq bo’yicha analitik hisob har bir qarzdor va ssuda turlari bo’yicha alohida shaxsiy hisob varaqlarda olib boriladi.

Ssuda oluvchi va bank o’rtasidagi tuzilgan kredit shartnomasiga binoan ssudaning qaytarish muddatlari belgilanadi. Seudaning qaytarish muddati

⁹ Банкнинг Сирдарё вилояти филиалининг 2011 йилдаги бухгалтерия ҳисоби маълумотлари шартли равишда олинди

tugagandan so'ng ssudaning qaytarilishi quyidagicha buxgalteriya yozuvi rasmiylashtiriladi:

D-t 20208-«Talab qilib olunguncha saqlanadigan hisobvarag'i»,

K-t 13101-«Xususiy korxonalar va nodavlat korxonalarga beriladigan qisqa muddatli ssudalar» hisobvarag'i.

Bu buxgalteriya o'tkazmasi mijozning talab qilib olunguncha saqlanadigan depozit bo'yicha hisobvarag'ida ssudani qaytarish uchun etarli pul mablag'lari bo'lgan holda amalga oshiriladi. Agar qarzdorning qarzni qaytarishga mablag'i bo'lmasa, ssuda summasi, 13101-"Muddati o'tgan xususiy korxonalarga va nodavlat korporatsiyalariga berilgan hisobvarag'i"ga o'tkaziladi va quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

D-t 13105 «Xususiy korxonalarga berilgan muddati o'tgan qisqa muddatli ssudalar»,

Kt 13101– «Xususiy korxonalarga berilgan qisqa muddatli ssudalar» hisobvarag'i.

Qaytarish muddati kelganda to'lanmagan va shundan so'ng 90 kun o'tgandan so'ng qaytib kelmagan ssudalar 13109-"Xususiy korxona va nodavlat korporatsiyalarga berilgan qisqa muddatli shartlari qayta ko'rib chiqiladigan ssudalar" balans hisobvarag'iga o'tkaziladi. Korxona hisobvarag'iga pul kelib tushgandan so'ng ssudani kaytarishda quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi: Dt 20208, Kt 13101.

2.2. Bankning kredit operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobining hozirgi holati va uni takomillashtirish masalalari

O'zbekiston Respublikasining qonuniy hujjatlarida "Pul mablag'larini jalb qilish hamda ularni qaytarishlik, to'lovlilik va muddatlilik shartlari asosida o'z nomidan joylashtiruvchi muassasa bankdir"¹⁰ deb qayd etilgan. Shu boisdan, banklar va boshqa kredit tashkilotlari pulni uning soxiblariga foiz to'lash sharti

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси нинг "Банк ва банклар фаолияти тўғрисида"ги қонуни. 25.04.1996.

bilan o'z holida jamlaydilar va o'z nomidan qarzga berib, foiz oladilar. Bunda uch sub'ekt, pul egasi, kredit tashkiloti va qarz oluvchining kredit munosabati paydo bo'ladi.

Hozirgi kunda har bir tijorat banki o'zining kredit siyosatini ishlab chiqib, kredit munosabatlarini ushbu siyosat orqali yuritadilar va Markaziy bank esa kreditlash bo'yicha umumiy ko'rsatmalar beradi¹¹. Bank tomonidan beriladigan kreditlar muddatiga ko'ra, qisqa va uzoq muddatli kreditlarga bo'linadi. Qisqa muddatli kreditlar 1 yil muddatga, uzoq muddatli kreditlar esa 5 yildan ortiq muddatga beriladi.

Qisqa muddatli kreditlarning ham har xil turlari mavjud, ular bir biridan kredit berish shartlari, ta'minlash tarzi, qoplash muddatlari bilan farq qiladi. Qisqa va uzoq muddatli kreditlash operatsiyalarining hisobini yuritish uchun tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasida bir qator asosiy hisobvaraqlar ochilgan bo'lib, ular 11900-15500 tartibda ochilgan birinchi va ikkinchi tartibli hisobvaraqlardan tashkil topadi.

Ushbu balans hisobvaraqlarida bankning rezident hamda norezident bo'lgan shaxslarga milliy va chet el valyutalarda bergan kreditlarning hisobi olib boriladi. Kreditlar muddati, qarzdorlar va kreditning maqomi bo'yicha tasniflanadi. Kreditlar maqomi bo'yicha quyidagicha tasniflanadi:

–muddati o'tgan kreditlar - bank va mijoz o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga ko'ra o'z vaqtida qaytarilmagan kreditlar. Bu toifadagi kreditlar muddatsiz hisoblanib, imkoniyati bo'lishi bilan undirib olinadi.

–shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar - o'zaro qayta ko'rib chiqilgan yoki qayta tuzilgan shartnomalarga asosan muddati, yangi foiz stavkasi yoki ta'minlanganlik holatiga qo'shimcha talablar va shu kabi boshqa shartlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan kreditlardir. Muddati o'tgan kreditlar bo'yicha foizlar ko'zda tutilmagan holatlar alohida hisobvaraqda hisobga olib boriladi va qarzdor kreditni qaytarayotganda foizlari ham birga undirib olinadi.

¹¹ Тижорат банкларида кредитларнинг бухгалтерия ҳисоби тартиби тўғрисидаги низом. ЎзР АВ 17.12.2004 йилда 1435-сон билан рўйхатга олинган

Ushbu hisobvaraqlar boshqa banklarga va mijozlarga berilgan kreditlar summasiga debetlanadi. Bank tomonidan berilgan kreditlar qaytarilganda yoki muayyan kreditning maqomi o'zgarishi munosabati bilan boshqa turga o'tkazilayotganda va ushbu kreditlar bo'yicha ko'rilgan zarar qoplanayotganda tegishli kredit hisobvaraqlari kreditlanadi.

Bankning Sirdaryo viloyati filialida berilgan kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun zahiralar bankning daromadlari hisobidan yaratiladi. Ushbu zahiralar qarzdorning moliyaviy holatini, berilgan kreditning ta'minlanganligi va qaytarilmaslik ehtimollarini baholash natijasida yaratiladi.

Kredit operatsiyalarini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning barchasi bir qator shaxsiy hisobvaraqlarni o'z ichiga olib, ular muddatli, muddati o'tgan, qayta qo'rib chiqilgan kreditlar bo'yicha alohida-alohida hisob yuritiladi. Agar kredit hisobvarag'i 01 bilan tugasa berilgan kredit, 05 bilan tugasa berilgan muddati o'tgan kredit, 09 bilan tugasa berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlarni tasniflaydi. Kredit operatsiyalari kredit hisobvaraqlarida aks etiriladi. Agar xarid qilingan tovarning haqini darhol to'lash lozim bo'lsa, lekin buning uchun firmaning xususiy mablag'i etmasa, bunday hollarda firmada bir martalik qarz mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ldi deyishadi. Bu ehtiyojni qondirish uchun "kredit yo'li ochilmagan" kredit hisobvarag'idan foydalaniladi. Bunday hisobvaraqdan kredit berish bir martalik kredit berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday kreditning har biri bo'yicha bank alohida qaror qabul qiladi. Bu shuni bildiradiki, agar kelgusida yana kredit zarur bo'lsa, mijoz raxbariyati bank talab qilgan hujjatlarning yangi to'plamini to'liq ishlab chiqishi, xuddi birinchi kredit olinganidek muzokaralar olib borishi va barcha talablar bajarishi lozim.

Shuning uchun, agar kredit resurslariga ehtiyoj uzoq muddatli va takrorlanuvchan ekanligi oldindan tahlil qilinsa "kredit yo'li ochib" kredit berish to'g'risida shartnoma tuzish qulayroq bo'ladi va arzonroq tushadi. Kredit yo'li deganda - bu mijoz bilan bank o'rtasida belgilangan summada qarzlarni turkumini berish to'g'risida tuzilgan kelishuvdir.

Kredit yo'lini ochishda bank tomonidan kreditlash limiti belgilanadi. SHu limit doirasida kredit berishda bank bilan qo'shimcha muzokaralar olib borish talab qilinmaydi. Kredit yo'lining ochilishi shuni bildiradiki, mijozga etkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun bank kredit summasi doirasida mijozning hisob-kitob hujjatlari bo'yicha pul to'laydi. Shu bilan birga, bank pulni hujjatlar topshirilgan kuni to'lashga majbur. Kredit o'z vaqtida berilmaganligi va mijozning tovar etkazib beruvchilar bilan hisob-kitobni kechikib amalga oshirilganligi uchun bank javobgar hisoblanadi.

Kredit olish uchun alohida kredit ochish yo'lini ochish shart emas. Bank bilan uning mijozi o'rtasida maxsus bitim tuzilib, shu bitimga asosan mijozga uning hisob-kitob varag'ida qolgan mablag'dan ortiq summadagi to'lovlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Bankning Sirdaryo viloyati filialidan kredit olish uchun har bir kredit bo'yicha alohida kredit hisobvarag'i ochiladi. Mijoz kredit olish uchun bankga belgilangan tartibda ariza va boshqa hujjatlar paketini rasmiylashtirilib topshiradi. Kredit komissiyasining qaroriga ko'ra, kredit berish lozim deb topilsa bank va kredit oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi. Kredit shartnomasida kreditning nima maqsadda olinishi, muddati, summasi, qaytarilish tartibi, kredit uchun to'lovlar, tomonlarning majburiyatlari, javobgarligi va boshqa shartlar ko'rsatiladi.

Kredit bo'limining farmoyishiga ko'ra, hisob operatsion bo'limida kredit oluvchi mijozning mulkchilik shakliga ko'ra, kredit hisobvarag'i ochiladi. Bu hisobvaraqda bank tomonidan mijozlarga berilgan kredit-larning hisobi yuritiladi. Hisobvaraqning debetida berilgan kredit-larning summasi, kreditida esa qarzdorlar tomonidan qaytarilgan kreditlarning summasi aks ettiriladi. Bu hisobvaraq bo'yicha analitik hisob har bir qarzdor va kreditlarning turlari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

Kredit hisobvarag'i ochilgandan so'ng, kreditning berilishi va qaytarilishi bo'yicha operatsiyalarini amalga oshirish mumkin. Kredit berilishi kredit

komissiyasining farmoyishi asosida amalga oshiriladi va kredit bo'limi xodimi hisob operatsiya bo'limiga mijozga kredit berish to'g'risidagi farmoyishini ma'sul ijrochilarga beradilar. Ma'sul ijrochilar farmoyishda ko'rsatilgan rekvizitlar asosida kredit berish bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini bajaradilar. Kredit hisobvaraqlarini muddatli, muddati o'tgan, qayta ko'rilayotgandagilari bo'yicha alohida yuritiladi

Kredit summasi bank mijozining kredit ob'ektlari va maqsadidan kelib chiqib, mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar qiymatini pul o'tkazish orqali amalga oshiradilar. Agar bank mijoziga kredit berilganda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan rasmiylash-tiriladi: 11900-15500—«Kreditning turlari» bo'yicha hisobvarag'i debet-lanib, 10301-«Markaziy bankdagi vakillik xisobvarag'i-Nostro» yoki 16103-Bosh bank/filliallaridan/filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i kreditlanadi¹².

Kredit oluvchi va bank o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga binoan, kreditni qaytarish muddatlari belgilanib, qaytarish muddati tugagandan so'ng kreditni qaytarish bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. 20200-«Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit» hisob-varaqlari debetlanib, 11900-15500 hisobvaraqlar kreditlanadi. Bu buxgal-teriya yozuvlari agar mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ida kreditni qaytarish uchun etarli pul mablag'lari bo'lgan holda bajariladi. Agar qarzdorning hisobvarag'ida kreditni qaytarish uchun mablag'i yo'q bo'lgan taqdirda, kreditning summasi 12105-13205 -«Muddati o'tgan kreditlar» hisobvarag'iga (qisqa muddatli kreditlar uchun) o'tkaziladi. U buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylash-tiriladi: 12105-13205-«Muddati o'tgan kreditlar» hisobvarag'i debetlanib, 12100-15500 hisobvaraqlar (qisqa muddatli kreditlar uchun) kreditlanadi.

Qaytarish muddati kelganda to'lanmagan va to'lanish kunidan 90 kun o'tgandan so'ng ham qaytib kelmagan kreditlar 12109-13109 —«Qisqa muddatli shartlari qayta ko'rib chiqiladigan kreditlar» hisobvarag'iga o'tkaziladi va mijoz

¹² Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлари режаси. —Т.: 2004й

hisobvarag'iga pul kelib tushgandan so'ng kreditni qaytarish bo'yicha tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Kreditlarning qaytishi ma'lum tavakkalchilikni talab qiladi. Shu sababli banklarda kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash zahirasi tashkil etiladi. Kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash zahirasi hisobini olib borish uchun har bir kredit turi bo'yicha alohida, ya'ni 12199-15599 hisobvaraqlari ochiladi. Har bir kredit turi bo'yicha shartnomada kelishilgan miqdorda foiz stavkalari asosida bank foydasiga foizli daromadlar undiriladi.

Hozirgi kunda kreditlar uchun foizlar Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan nizom¹³ asosida hisoblab boriladi. Bank kredit summasidan bank mablag'laridan foizlarni belgilaydi va foizlar bo'yicha summalar quyidagi formula asosida hisoblab chiqariladi.

Bankning Sirdaryo viloyati filiali 2011 yil 1 yanvarda mijozga yillik foiz stavkasi 16 % bo'lgan 10.000.000 so'm qisqa muddatli kredit berdi. Kreditni so'ndirish sanasi - 2011 yil 31 dekabr. Foizlar har oyning 23 sanasida to'lanadi, asosiy qarz summasi so'ndirish muddati kelganda to'lanadi¹⁴.

1 yanvardan boshlab bank kredit bo'yicha foizlarni hisoblash va ularni bosh kitobda buxgalteriya o'tkazmasiga ko'ra aks ettirishi lozim. 365 kun usulini qo'llab, yanvar oyi uchun quyidagi xisob-kitob qilinadi:

Hisob-kitob: $(10.000.000 \times 16 \%) / 365 = 4384$ so'm (har kunlik hisoblanadigan foiz summasi).

2011 yil yanvar oyi uchun: 4384×30 (haqiqatdagi kunlar soni) = 131520 so'm. Shuning uchun yanvar oyi uchun foizli daromad 131520 so'mni tashkil qiladi.

Dt 16309- «Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» scheti -131520 so'm

Kt 41400-42600 (qisqa), 43100-44600 (uzok)- «.....berilgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar» schetlari- 131520 so'm .

¹³ Тижорат банкларида фоизларни ҳисоблаш тўғрисидаги низом. ЎзР АВ 30.01.2004 йилда 1306-сон билан рўйхатга олинган

¹⁴ Банкнинг Сирдарё вилояти филиали 2011 йилдаги бухгалтерия ҳисоби маълумотларидан шартли равишда фойдаланилди.

Hisobot davri oxirida (2011 yil yanvar oyi uchun) hisoblangan foizlar summasi 131520 so'mni tashkil qiladi. Kredit shartnomasining shartlariga muvofiq foizlarni to'lash har oyda, hisobot oyining 23 -sanasida amalga oshirilishi lozim bo'lganligi sababli, mijoz bankka uning depozit schetidan foizlarni olishga ko'rsatma beradi. SHuning uchun 131520 so'm summadagi foizlarni to'lash (ssudadan 30 kun mobaynida foydalanganlik uchun foizlar) quyidagi o'tkazma yordamida qarzdorning depozit schetidan olinadi:

Dt 20200 "Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar" -131520 so'm

Kt 16309- «Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» scheti -131520 so'm

Kredit bo'yicha olingan foizli daromad foyda hisobiga o'tkazildi,

Dt 41400-42600 (kiska), 43100-44600 (uzok)- «.....berilgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar» schetlari- 131520 so'm .

Kt 31203-«Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)» scheti -131520 so'm

Bank mijozlariga berilgan kreditlar bo'yicha foizlar hisoblanganda, lekin xali undirilmagan holda buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv yozib qo'yiladi. 16309- «Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i debetlanib, 41401-44501- «Berilgan kredtlar bo'yicha foizli daromadlar» hisobvaraqlari kreditlanadi. Undirilganda esa, 20200- «Mijozlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar» hisobvarag'i debetlanib, 16309-«Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvaraqlari kreditlanadi.

Shunday qilib, bankning Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiya-larining buxgalteriya hisobini yuritish qonuniy va me'yoriy hujjatlarga asosan, shuning, bank tomonidan ishlab chiqilgan kredit siyosatida belgilan-gan shartlar bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2.3. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash tartibi va ularni hisobga olishni takomillashtirish masalalari

Tijorat banklarini qayta moliyalash uchun kreditni berishni Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Bu operatsiya O'zbekiston Respublikasi Markaziy

banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan Nizomga asosan amalga oshiriladi¹⁵. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 3 maydagi 234-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi huzuridagi kredit rusurslari kimoshdi savdolari orqali tijorat banklarini qayta moliyalash uchun kreditlar berish tartibini belgilaydi. Bu jarayon Markaziy bankning pul-kredit vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Qayta moliyalash - Markaziy bank tomonidan amalga olinadigan pul kredit siyosati vositalaridan biri bo'lib, u ikkinchi daraja banklarining likvidlik holatini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltiriladi.

Markaziy bankning qayta moliyalashtirish operatsiyasi quyidagi usullarda olib borilishi mumkin: tijorat banklarining ixtiyoridagi veksellarni hisobga olish yo'li bilan kreditlash; tijorat banklari ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlarni garov, olish yo'li bilan kreditlar berish, ya'ni lombard kredita; to'g'ridan-to'g'ri kredit berish usuli.

Qayta moliyalash kreditlarini berayotganda Markaziy bank tijorat banklarining kredit potentsialining joriy holatini doimiy kuzatib turadi. Buning uchun u joriy monitoringlar o'tkazadi, ular vakillik hisobvaraqlarini tahlil qiladi va asosan o'zi kreditlarni joylashtirish va jalb etish uchun qatnashadigan banklararo kredit bozori - O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi huzuridagi kredit resurslari kimoshdi savdosini kuzatib boradi.

Tijorat banklarining likvid holatini saqlashga yo'naltiriladigan, ularni qayta moliyalash uchun beriladigan kreditlar miqdori, shuningdeq qayta moliyalash stavkasi, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining joriy vaqtdagi aniq vazifalariga muvofiq, hamda pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Bunda qayta moliyalash stavkasi inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda o'zgartirilishi mumkin.

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бoshqaruvi томонидан тасдиқланган «Қайта молиялаш кредитларини бериш тартиби тўғрисида»ги Низом. –Т.: 1998й.

Markaziy bank yuqorida aytilgan qonunga muvofiq, tijorat banklariga milliy valyutada lombard kreditni berishi mumkin. Lombard kredita qayta moliyalash shakllaridan biri bo'lib, ushbu kredit Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini garovga qo'yish yo'li orqali beriladi. Lombard kreditining berilishi amaldagi Nizomga asosan amalga, oshiriladi¹⁶.

Qayta moliyalash kreditlari 41-sonli tartibiga muvofiq joylashtiriladi¹⁷. Keyinchalik qayta moliyalash kreditlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus ko'rsatmalari bo'yicha ularda belgilangan shartlar asosida Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalari va tijorat banklari o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasi bilan rasmiy-lashtiriladi. Kredit shartnomasida quyidagilar ko'zda tutiladi: tomonlar nomi; ularning o'zaro majburiyatlari va iqtisodiy ma'suliyati; kredit muddati va miqdori; aniq maqsad ko'zlanganligi; kredit berish va qaytarish tartibi; foiz stavkasi va uni o'zgartirish shartlari; ta'minlash shakllari; jarima solish va tomonlar shartlashuvining boshqa jihatlari. Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga kredit berishda Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga majburiy zahira talablariga rioya qilish e'tiborga olinadi.

Tijorat bankida Markaziy bank tomonidan unga ilgari berilgan ushbu kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelgan hollarda, quyidagi ta'sir choralari qo'llaniladi: belgilangan foiz stavkasi 2 baravar oshiriladi; "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning 59-moddasiga binoan muddati o'tgan qarz bosh bank hisobvaraqdan undirib olinadi. Agar bosh bank hisobvarag'ida qarzlarni qoplaydigan miqdorda mablag'lar bo'lmasa, ushbu qarz to'la qaytarilmaguncha bank vakillik hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar to'xtatiladi.

Muddatidan oldin bo'shagan qayta moliyalash kreditlarini o'z vaqtida qaytarmaganlik uchun tijorat banklariga nisbatan Markaziy bank kredit

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 416-сонли "Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан банкларга ломбард кредити бериш тартиби тўғрисида"ги Низом. –Т.: 1998й.

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқаруви томонидан тасдиқланган 41-сонли "Ўзбекистон Республикасида кредит ресурслари ким ошди савдоларини ўтказиш тартиби". –Т.: 1996й

qaytarilmagan hollarda Markaziy bank garovga qo'yilgan mulkni sotish yoki kafolat xati bo'yicha talabnoma qo'yish orqali qarz summasini undirib olish huquqiga ega.

Qayta moliyalash kreditlarini belgilangan muddat ichida qaytari-lishni ta'minlamagan tijorat banklariga nisbatan 1997 yil 25 yanvardagi 74-sonli yo'riqnomaning 6-bandiga va unga kiritilmagan 1998 yil 27 iyundagi 406-sonli qo'shimchaning 1-bandida ko'rsatilgan ta'sir choralari qo'llaniladi.

Banklar tomonidan aniq maqsadli kredit resurslaridan belgilangandan tashqari maqsadlarda foydalanishiga yo'l qo'lgan hollarda, Ushbu kreditlar muddatidan oldin qaytarib olinadi.

Qayta moliyalash kreditlari bo'yicha marja darajasi Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga berilgan qayta moliyalash kreditlarini hisobini yuritish bo'yicha operatsiyalar baldansdagi 12101- «Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli ssudalar» va 12602 –«O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olingan qisqa muddatli ssudalar» hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Muddati kechiktirilgan qayta moliyalash kreditlari hisobi 12109-«Boshqa banklarga berilgan muddati kechiktirilgan qisqa muddatli ssudalar» hisobvarag'ida hisobga olinadi. Muddati o'tgan qayta moliyalash kreditlari hisobi 12105- «Boshqa banklarga berilgan muddati o'tgan qisqa muddatli ssudalar» hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Agar kredit bergan bankda;

D-t 12101-"Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli ssudalar"

K-t Tijorat banki vakillik hisobvarag'i yoki 21602 –«O'zbekiston respublikasi Markaziy bankidan olingan qisqa muddatli ssudalar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Kredit olgan bankda esa:

D-t Tijarat banki vakillik hisobvarag'i yoki 21602–«O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olingan qisqa muddatli ssudalar» hisobvarag'i,

K-t 21602 / 21606 – «O'zbekiston respublikasi Markaziy bankidan (boshqa

banklardan) olingan qisqa muddatli ssudalar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Balans hisoboti tuzish yoki hisob-kitob sanasida: kredit bergan bo'lsa, olish uchun hisoblangan foizlar summasi;

D-T 16309 (tijorat banki) yoki 16305 «Markaziy bank) «Olish uchun hisoblangan foizlar summasi»,

K-t 41601 «Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foiz daromadlari» hisobvarag'i.

Kredit olgan bankda, to'lash uchun hisoblangan foizlar summasi;

D-t 53101 / 53106 (tijorat banki) yoki 52002 «Markaziy bank) «Markaziy bankdan olingan qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar» hisobvarag'i,

K-t 22410 «Olingan ssudalar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'i.

To'lash muddati etib kelganda va tijorat banki vakillik hisobvarag'ida etarli mablag'lar mavjud bo'lganda quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

a) Kredit uchun to'lov summasi;

D-t 21606 (tijorat banki) yoki 22114 (Markaziy bank) "Markaziy bankdan (boshqa banklardan) olingan qisqa muddatli ssudalar",

K-t 10301 Tijorat banki vakillik hisobvarag'i (o'ziniki)

b) To'lash uchun hisoblangan foizlar summasi:

D-t 22410 "Olingan ssudalar bo'yicha hisoblangan foizlar",

K-t 10301 Tijorat banki vakillik hisobvarag'i (o'ziniki).

Tijorat banki vakillik hisobvarag'ida pul mablag'lari bo'lmagan yoki etarli bo'lmagan va kredit belgilangan muddatda to'lanmagan hollarda quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi: kredit bergan bankda: Muddati o'tgan kredit to'lov summasiga;

D-t 12105 "Boshqa banklarga berilgan muddati o'tgan ssudalar",

K-t 12101 "Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli ssudalar" hisobvarag'i.

Kredit olgan bankda muddati o'tgan kredit summasi balansdagi 21602-21606 - "Markaziy bankdan (boshqa banklardan) olingan qisqa muddatli ssudalar" hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Muddatida to'lanmagan qarzlar summasidagi kredit resurslari kreditorga qaytarilayotganda quyidagi buxgalteriya yozuvi Bilan rasmiy-lashtiriladi: kredit olgan bankda:

D-t 21602/21606 (tijorat banki) yoki 22114 (Markaziy bank) "Markaziy bankdan (boshqa banklardan) olingan qisqa muddatli ssudalar",

K-t Tijorat banki vakillik hisobvarag'i (o'ziniki) hisobvarag'i.

Kredit bergan bankda;

D-t Tijorat banki vakillik hisobvarag'i,

K-t 12105 "Boshqa banklarga berilgan muddati o'tgan ssudalar" hisobvaraqlarida hisobga olinadi.

Muddatidan oldin bo'shagan qayta moliyalash kreditlarini o'z vaqtida qaytarmaganlik uchun tijorat banklariga nisbatan Markaziy bank kredit shartnomasida ko'zda tutilgan choralar qo'llashga haqli.

Qayta moliyalash kreditlari qaytarilmagan hollarda, Markaziy bank garovga qo'yilgan mulkni sotish yoki kafolat xati bo'yicha talabnoma qo'yish orqali qarz summasini undirib olish huquqiga ega. Banklar tomonidan aniq maqsadli kredit resurslaridan belgilangandan tashqari maqsadlarda foydalanishiga yo'l qo'yilgan hollarda, ushbu kreditlar muddatidan oldin qaytarib olinadi. Ta'sir choralari Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmasi va tijorat banki o'rtasida tuziladigan kredit shartnomalarida aks ettirilishi shart.

3-Bob. Asaka bank OAJ Sirdaryo viloyati filialida kredit portfeli va kredit operatsiyalarini tahlil qilish hamda uni takomillashtirish masalalari

3.1. Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiyalari bo'yicha kreditlar portfelinin tahlili

Bankning kreditlash faoliyatining samaradorligi joylashtirilgan resurslar tarkibi, sifati, daromadlilik hamda jalb etilgan manbalarga uzviy bog'likdir. Kredit resurslari bankning xususiy va jalb etilgan mablag'lari hisobidan shakllanadi.

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda faoliyat yuritayotgan bank uchun aktsiyadorlik kapitalining bank passividagi ulushi qanchalik katta bo'lsa, bankning moliyaviy mavqei shunchalik mustahkam bo'ladi. Ushbu tahlil bankning yil yakuni bo'yicha moliyaviy faoliyat natijalari asosida tayyorlangan bo'lib, banklar umumiy passivining tarkibi aks ettirilgan. Bankning kredit portfeli tarkibi hamda berilgan kreditlar bo'yicha olingan foizli daromadi tarkibi aks ettirilgan (2- jadvalga qarang).

2- jadvaldan ko'rinib turibdiki, umuman olganda, bankning Sirdaryo viloyati filiali uchun eng asosiy qarzidorlar davlat korxonalari, so'ngra qo'shma korxonalar hisoblanadi. Bankning kredit portfelida xususiy biznes uchun ajratilgan kreditlar ulushining oshib borishini respublikada ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasi bilan izohlash mumkin.

Berilgan kreditlar bo'yicha eng kup foizli daromadlar davlat va xususiy sektor korxonalaridan olingan. Ushbu holat uch yil mobaynida sifat jihatidan o'zgarmadi. Bankning kredit portfeli va foizli daromadlar tarkibi guruhlar bo'yicha aks ettirilgan.

Bankning Sirdaryo viloyati filialining umumlashgan kredit portfeliga xos bo'lgan xususiyat yirik banklar guruhiga ham xosdir. Umuman olganda bankning kredit portfelida davlat korxonalari, qo'shma korxonalar va xususiy korxonalarga berilgan kreditlar asosiy o'rinda turadi. O'z navbatida, ushbu qarzidorlar guruhi banklarga foizli daromadning asosiy qismini keltirganlar. Bu ko'rsatkichlar o'tgan

vaqt mobaynida xususiy korxonalar foydasiga nisbatan kamaygan. Bu bankning xususiy sektor vakillarini kreditlash ishlarini kengaytirayotganini ko'rsatadi.

2- jadval

2009-2011 yillarda bankning Sirdaryo viloyati filialining umumiy kredit portfeli tahlili¹⁸

Qarzdorlar guruhi	Sana	Kredit miqdori (foiz)	Olingan foizli daromad (foiz)
Jismoniy shaxslar	31.12.11	10,6	14,56
	31.12.10	3,0	8,33
	31.12.09	2,37	9,08
Davlat korxonalari	31.12.11	27,3	22,74
	31.12.10	53,6	46,91
	31.12.09	60,73	48,51
Qo'shma korxonalar	31.12.11	23,15	14,57
	31.12.10	23,57	12,61
	31.12.09	22,24	15,22
Xususiy korxonalar	31.12.11	37,65	36,18
	31.12.10	19,56	24,96
	31.12.09	14,18	20,12
Jami	31.12.11	100	100
	31.12.10	100	100
	31.12.09	100	100

Bankning Sirdaryo viloyati filiali faoliyati tahlilida foydalanilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, barcha banklarga xos bo'lgan xususiyatlar ko'rib chiqilganda nisbatan boshqa ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Bunga mijozlar tarkibi bilan uzviy bog'langani asosiy sababdir. Bank faoliyatining umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, o'tgan 3 yil mobaynida bankning kapitallashuvi oshdi, iktisodiyotning xususiy sektoriga berilayotgan kreditlar hajmi o'sdi.

Bankning kredit resurslari manbalarining sifati yaxshilandi. Bank tomonidan kreditlashga yo'naltirilayotgan mablaglar hajmi ham ijobiy tomonga o'zgardi. O'z navbatida, bank oldida turgan bir qator imkoniyatlar hozircha o'zlashtirilmagan.

¹⁸ Банкнинг Сирдарё вилояти филиалининг 2009-2011 йиллардаги бухгалтерия ҳисоби маълумотларидан шартли равишда фойдаланилди.

Depozitlar hozircha bank majburiyatlarining asosiy qismini tashkil etmagan. Bankning kreditlash imkoniyatlaridan to'raligicha foydalanilmagan. Shu bilan birgalikda, bankka daromad keltiruvchi turli-tuman xizmatlar ko'rsatish orqali o'zlarining daromad manbalarini ko'paytirmoqdalar.

Shunday qilib, bankning Sirdaryo viloyati filialining kredit faoliyatlariga yanada to'laroq va har tomonlama baho berishda joylashtirilgan kreditlarning sifati, muddati haqidagi axborotlarning aniqligi va ob'ektivligi muhim ma'lumot hisoblanadi.

3.2. Bankning Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiyalari bo'yicha ehtimoliy zahiralarni tuzish va ularning tahlili

Bankning hisobotlari aktivlar sifatining mavjud holatini aks ettirishi lozim. Ushbu ma'lumotlarning mavjud bo'lmasligi bank omonat-chilari, kreditorlari va aktsiyadorlari, shuningdek, Markaziy bank va boshqa manfaatdor tomonlarni yanglishtirishga urinish deb tushuniladi. Bunday faoliyat xavfli va nosog'lom bank amaliyotiga kiradi.

Bank balansi tuzilmasida daromad keltirmaydigan aktivlar ulushining kattaligi, shuningdek, balansdan tashqari hisobi yuritiladigan qaytaril-magan aktivlar summasining kattaligi bank ijro rahbariyatining malakasi Markaziy bank talablariga muvofiq kelmasligi hamda Kengash tomonidan bank faoliyati etarli nazorat etilmasligini aniqlash uchun asos bo'ladi. Harakatsiz kreditlarning yuqori darajada bo'lishi bank kredit siyosati, kreditlarni strukturizatsiya qilish mezonlari va ssudalarni boshqarish tartibi bo'shligi ko'rsatkichi bo'lishi mumkin.

Aktivlar portfeli sifati to'g'risida ob'ektiv va o'z vaqtida topshiriladigan axborotning mavjud bo'lmasligi bank rahbariyatini tegishli ravishda tuzatish chora-tadbirlarini ko'rish imkoniyatidan ham mahrum etishi mumkin.

Bankning Sirdaryo viloyati filialining o'z aktivlarini tasniflash hamda shubhali va harakatsiz aktivlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni

qoplash uchun etarli bo'lgan zahirani tashkil etishi shart. Shu boisdan, quyidagi tushunchalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz¹⁹:

- ssudalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahira;
- maxsus zahira - “standart”, “substandart”, “shubhali” va “umidsiz” ;
- umumiy zahira;
- muddati o'tgan ssudalar;
- restrukturizatsiya qilingan ssudalar;
- yangi bozorga doir foiz stavkalari;
- o'stirilmaydigan kreditlar;
- yaxshi ta'minlangan kreditlar;
- qisman ta'minlangan kreditlar;
- ta'minlanmagan kreditlar.

Aktivlarni tasniflash tizimi barcha turdagi kreditlar, jumladan, bank kafolatlari, kredit liniyalari, banklararo kreditlar, overdraftlar uchun qo'llaniladi va balansdan tashqari majburiyatlarni tasniflashni ko'zda tutadi. Ushbu tizim boshqa bank aktivlari, jumladan, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, olishga doir hisobvaraqlar, uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarni bajarish bo'yicha sotib olingan talab qilish huquqi va qaytarilmaslik xatari mavjud bo'lgan boshqa aktivlarni baholashda ham qo'llanilishi mumkin. Kreditni tasniflash tizimi quyidagi mezonlar bo'yicha qarzdorni baholashdan boshlanadi²⁰: tendentsiya va tarmoq kelajagi; qarzdorning moliyaviy ahvoli; mijozning kredit tarixi; muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi; korxonadagi rahbarlik va boshqarish sifati.

Kredit taxlili va aktivlar tasnifi natijalari qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, kreditlarni to'lash tarixi va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan garovning mavjudligi kabi omillarga bog'liq. Ushbu omillarni kredit portfeli va tijorat bankining boshqa aktivlariga xos bo'lgan tavakkalchilikni aniqlash va baholashda qo'llash juda muhimdir.

¹⁹Рожнова О.В. Международные стандарты бухгалтерского учета и финансовой отчетности: Учеб. пос. -М.: ЭКЗАМЕН, 2009. - 187 с.

²⁰ Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. -Т.: Молия, 2010й

Bankning Sirdaryo viloyati filialida bank aktivlarini quyidagi tartibda va toifalar bo'yicha tasniflash mumkin: yaxshi - ushbu aktivlar bo'yicha qarzlarning o'z muddatida to'lanishi shubha tug'dirmaydi. Qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u etarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlar, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun etarli pul mablag'lari oqimiga ega.

Qarz oluvchi amalda bajariladigan, jumladan, bozorda raqobatlasha olish, yaxshi mahsulot ishlab chiqarishga doir strategik rejani taqdim etadi va o'z mahsulotlari uchun marketing rejasiga ega bo'ladi. Qarzdor mavqeini baholash kreditga doir to'lovlar tarixi, garovning bozorda sotilishi kabi omillarni o'z ichiga qamrab oladi. Garov "yaxshi ta'minlangan" kredit mezonlariga mos keladi. Garov amaldagi qonunchilikka muvofiq notarial jihatdan puxta tasdiqlangan bo'lishi va zarur hollarda tegishli mulk bitimini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatga olinishi lozim.

Bank kredit qaytarilmagan holda cheklovlarisiz va erkin ravishda uni garov hisobidan undirib olishi mumkin. Ta'minotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiy-lashtirilishi kerak. "Yaxshi" deb tasniflangan kreditlarda ular qaytaril-masligi alomatlari bo'lmaydi. Foizlar muddati o'tgan ssudalar "Yaxshi" deb tasniflanishi mumkin emas.

Standart- bu toifaga kiritilgan aktivlar berilishida ikkilamchi to'lov manbasi puxta ta'minlangan bo'lishi lozim. Umuman olganda qarzdorning moliyaviy ahvoli barqaror hisoblanadi, lekin ayrim noqulay vaziyatlar yoki yo'nalishlar mavjud bo'lib, agarda ular bartaraf etilmasa, qarzdorning kreditni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubha uyg'onishi mumkin. Shu bilan birga moliyaviy ahvol yoki garovni nazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo'lishi mumkin. Kredit hujjatlarida etarlicha axborot bo'lmagan yoki garov ta'minoti bo'yicha hujjatlari bo'lmagan

"Yaxshi" kreditlar ham "Standart" aktivlar sifatida tasniflanishi mumkin. To'lanmagan foizlari yangi kreditga aylanadigan kredit hech bo'lmaganda

“Standart” aktiv sifatida tasniflanishi zarur. Qisqa vaqt mobaynida (30 kungacha) kechiktirilgan kreditlar “Standart” aktivlar sifatida ko’rib chiqilishi mumkin. Biroq, kechiktirish maqomi aktivning tasniflanishini baholashda asosiy omil bo’lmasligi lozim. “Standart” sifatida tasniflangan aktivlar bo’yicha bank qaytarilmagan asosiy qarz summasining 10 foizi miqdorida zahiralar tuzishi shart.

Substandart- bu aktivlar aniq ifodalangan kamchiliklar belgilariga ega bo’lib, bu holat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubha uyg’otadi. “Substandart” sifatida tasniflangan kreditlarda qarz to’lashning dastlabki manbai qarzga xizmat ko’rsatish uchun etarli darajada bo’lmaydi va bank qarzni qaytarish uchun qo’shimcha manbalarni qidirishga majbur bo’ladi. Shuningdek, substandart aktivlar ishonchli joriy moliyaviy ahvol va qarz oluvchining to’lov qobiliyati bilan himoyalangan. Substandart aktivlar odatdagiga nisbatan qoniqarli joriy moliyaviy axborotning yo’qligi yoki garov hujjatlarining etarli emasligi bilan bog’liq bo’lgan tavakkalchilik darajasi ancha yuqori bo’lgan kreditlarni ifodalaydi. Ular bo’yicha foizlar yoki asosiy qarz 30 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta’minlanmagan kreditlar, hech bo’lmaganda, substandart sifatida tasniflanishi zarur, shuningdek, 90 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta’minlangan kreditlar ham substandart sifatida tasniflanishi lozim.

Shuningdek, quyidagi muammo yoki xususiyatlardan kamida bittasi mavjud bo’lsa, aktiv to’lov muddati to’lgunicha substandart sifatida tasniflanishi mumkin:

a) asosiy to’lov manbalari qarz to’lash uchun etarli emas, bank garovga qo’yilgan mulkni sotish, qarz oluvchining boshqa asosiy mablag’larini sotish, to’lanishi lozim bo’lgan boshqa qarz mablag’larini qayta moliyalash kabilarni hisobga olgan holda qo’shimcha to’lov manbalarini topishi kerak;

b) qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag’lari-ning mo’ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun etarli bo’lmagan hollarda;

v) qarz oluvchi kapitali ko’p darajada etarli bo’lmagan korxona bo’lgani taqdirda;

g) ushbu sohaga nisbatan yo'nalish va istiqbollar barqaror bo'lmagan holda;

d) kreditlar, garov qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lgan holda.

“Substandart” sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining 25 foiziga teng bo'lgan zahiralarni shakllantirishi lozim. Shubhali kreditlar substandart deb tasniflanuvchi kreditlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud sharoitda aktivlarning to'liq qaytarilishini shubha ostiga qo'yadi va kam ishonchli qilib qo'yadi. Ziyon ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo'lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha “shubhali” deb tasniflanmaydi. Bunda quyidagi omillarning kamida bittasi mavjud bo'lsa, aktiv “shubhali” deb, tasniflanishi mumkin:

a) “substandart” aktivlarning hech bo'lmaganda bironta ko'rsatkichi, shuningdek, ayrim boshqa noqulay tavsiflari mavjud bo'lsa;

b) yaqin kelajakda aktivning qisman to'lanishi ehtimolining mavjud-ligi, shuningdek, ushbu paytda aktivning “umidsiz” deb tasniflanishi zarur emasligi.

Aktivni “umidsiz” deb tasniflashga imkon beruvchi muhim omillarga quyidagilar kiradi: bank aktivlar bo'yicha ayrim to'lov turlarini, yoki, hech bo'lmaganda qisman to'lovlarni oladi; bank garovni undirib olish bo'yicha huquqiy xatti-harakatlarni qo'llay boshlaydi va ta'minot sotuvini o'z vaqtida amalga oshiradi (90 kun ichida); qarzdor tomonidan keyinchalik aktivni to'liq ta'minlaydigan qo'shimcha ta'minotni taqdim etish harakat-larining amalda boshlanishi.

“Shubhali” deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarz to'lanmagan summasining 50 foizi miqdorida zaxirani tashkil etishi shart.

Umidsiz deb tasniflangan kreditlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Qiymati juda pastligi tufayli bank aktivlari sifatida ularning hisobini yuritish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblanadi. Bunday tasniflash kreditlarda umuman hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Lekin banklar o'z balanslarida bu qarzdor-likning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga

muvofig emas. Bank garovga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish choralarini ko'rish yoki uni qaytarish choralarini qo'llashi kerak. Kamida 180 kunga kechiktirilgan aktiv "umidsiz" deb tasniflanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida aktiv qaytarilmasligidan dalolat beruvchi faktlar va belgilar mavjud bo'lsa ushbu aktiv "umidsiz", deb tasniflanishi mumkin. Umidsiz deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining 100 foizi miqdorida zaxiralar yaratishi kerak. Aktiv bir toifadan ortiq toifalarda tasniflanishi mumkin. Summasi asosiy qarzning to'lanmagan qiymatidan kam bo'lgan ta'minotga ega muammoli ssuda quyidagicha tasniflanishi mumkin: qiymati ta'minotning bozor qiymatiga teng bo'lgan asosiy qarz qismi odatda substandart sifatida tasniflanadi; asosiy qarzning qolgan qismi ushbu bo'limda ko'rsatilgan tartibda shubhali yoki umidsiz kabi tasniflanadi.

Bankning Sirdaryo viloyati filialida quyidagi aktivlar noliqvid ta'minotga ega, deb hisoblanadi: ko'chmas mulk, o'zlashtirilgan va o'zlash-tirilmagan erga bo'lgan huquqni hisobga olgan holda; ko'chma mulk; xususiy korxonalarning qimmatli qog'ozlari; yuridik va xususiy shaxslarning kafolatlari²¹.

Aktivlar tasnifi davriy ravishda qayta ko'rib chiqilishi kerak va zarur hollarda, aktivlar har bir qayta tasniflashda almashuvchi va qo'shimcha qarzdorga qarz bo'yicha xizmat ko'rsatishda qayta tasniflanishi lozim.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zahirasiining adekvatligi tahlili va zarur hollarda qo'shimcha zahiralarining yaratilishi davriy ravishda kamida oyiga 1 marotaba amalga oshirilishi lozim. Belgilangan me'yorlarga muvofiq yaratilgan rezervga nisbatan aktiv bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar miqdorining oshib ketishi mumkinligidan dalolat beruvchi faktlar va sharoitlar aniqlangan holda rezervga ehtimoliy yo'qotishlarga nisbatan yirik ajratmalar amalga oshirilishi kerak.

Umidsiz, deb tasniflangan kreditlar hisobdan chiqarilishi va tegishli zahirlar darhol kamaytirilishi kerak. Xarajatlar ular tan olingan davrda hisobdan chiqarilishi

²¹ Рожнова О.В. Международные стандарты бухгалтерского учета и финансовой отчетности: Учеб. пос. -М.: ЭКЗАМЕН, 2010. - 187 с.

kerak. Aktivning hisobdan chiqarilishi ssuda qisman yoki to'liq qaytarilishi mumkinligini inkor etmaydi.

Agar ssuda noto'g'ri tasniflangan bo'lsa, qo'shimcha kreditlash va bankning ehtimoliy yo'qotishlari bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikning batafsil tahlilisiz na joriy kredit bo'yicha qo'shimcha resurslar shaklida, na yangi kredit shaklida bank qarzdorga qo'shimcha mablag'lar berishi mumkin emas. Biroq, bank bankdagi depozit yoki bank nazorati ostidagi ssuda yaxshi ta'minlovchi boshqa garov bilan ta'minlangan qo'shimcha kredit bergan taqdirda yangi ssuda boshqa kreditlar noto'g'ri tasniflangan hollarda ham "yaxshi" deb tasniflanishi mumkin.

Markaziy bank muayyan ssudalarning yanada qa'tiyroq tasniflanishini yoki quyida keltirilgan noqulay faktlar va hollarning hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan zahiraga qo'shimcha chegirmalarni ajratishni talab qilishi mumkin:

- bank kredit portfeli umumiy holatining yomanlashuvi;
- kreditlar berish adekvat bank tadbirlarining o'zgarishi yoki yo'qligi;
- shunga o'xshash ssudalar, masalan, ushbu sohaga berilgan bo'yicha bank ko'rgan amaldagi zararlar;
- bank rahbariyatining muammoli ssudalarni o'ndirishga noqobilligi;
- yirik ssudalarning to'planishi;
- nomaqbul iqtisodiy yo'nalish va sharoitlar, xususan, qarzdorlarning bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari yoki jo'g'rofik mintaqada katta miqdorda to'planishi;
- taqdim etilgan bank hisobotini tahlil qilish yoki Markaziy bank nazoratchilari tomonidan o'tkazilgan qarzdorning yohud bankning o'zining moliyaviy ahvoliga taalluqli inspeksiya natijasida aniqlangan boshqa holatlar.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash zahiralariga ajratmalar "Ehtimoliy zararlarni baholash" hisobraqami orqali bank xarajatlariga kiritilishi va joriy davr uchun "Foydalar va zararlar to'g'risidagi hisobot"ning "Aktivlar va lizing bo'yicha ehtimoliy zararlarni baholash" satrida aks ettirilishi lozim.

Zahiralarning noadekvatligi hollarida bank tomonidan zahiralarning etishmovchiligi aniqlangan davrda zahiralarga qo'shimcha ajratmalar qilinishi zarur. Bu "Ehtimoliy zararlarni baholash" (Foyda va zararlar to'g'risida hisobot) hisobraqamini debetlash va "Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahira" (Balans hisoboti) hisobraqamini kreditlash yo'li bilan amalga oshiriladi²².

Agar bankning Sirdaryo viloyati filiali aktivlari portfeli tahlil qilinganidan keyin uning zahiralari talab qilinganidan ortiq bo'lsa, u holda bank "Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahira" (Balans hisoboti) hisobraqamini debetlashi va "Ehtimoliy zararlarni baholash" (Foyda va zararlar to'g'risida hisobot) hisobraqamini kreditlashi lozim.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash zahiralarning adekvat darajasini doimiy ravishda ushlab turishning ta'minlanishi uchun to'liq javobgarlik Bank kengashiga yuklatiladi.

Boshqaruv tomonidan Kredit qo'mitasi va bank Kengashi bilan kelishilgan holda kredit yoki boshqa aktivni to'liq summada ishonchsiz deb ko'rib chiqish to'g'risida qaror qabul qilinsa, u holda ushbu aktiv "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralari" hisobraqamini debetlash va tegishli aktiv hisobraqamini kreditlash yo'li bilan balansdan chiqarilishi zarur. Zahira summasi ehtimoliy yo'qotishlarga etishmovchiligi hollarida qo'shimcha ajratmalar qilinishi lozim. Hisobdan chiqarilayotgan aktiv bo'yicha olinadigan hisoblab yozilgan foizlarni hisobga olish shaxsiy hisobraqami ham bir vaqtning o'zida ushbu muayyan aktiv bo'yicha "Olinadigan hisoblab yozilgan foiz" hisobraqamini kreditlash va "Foizli daromad" hisobraqamini debetlash yo'li bilan yopilishi zarur.

Ssuda qarzi va hisoblab yozilgan foizlarning bankning balansidan chiqarilishi ssuda va foizlar bo'yicha qarzlarning bekor qilinishi emas. SHuning uchun ko'rsatilgan qarz u hisobdan chiqarilgan vaqtdan boshlab besh yildan kam bo'lmagan muddat davomida balansdan tashqari hisobraqamlarda aks ettirilishi

²² Тижорат банкларида фоизларни ҳисоблаш тўғрисидаги низом. ЎЗР АВ 1306-сон билан рўйхатга олинган. –Т.: 2004 й.

lozim. Bank asosiy qarz va ushbu hisobdan chiqarilgan kredit bo'yicha foizlarni o'ndirish uchun barcha urinishlarni qo'llashi zarur. Bank qarzdor majburiyatining to'liq summasini to'g'ri aks ettirish uchun mazkur aktivga foizlar hisoblab yozishni davom ettirishi mumkin.

Bunda bankning Sirdaryo viloyati filiali muntazam ravishda, bir oyda kamida bir marta, qarzdor mijozga balansdan tashqari hisobraqamlardagi qoldiqlarga mos keladigan asosiy qarz va olinadigan hisoblab yozilgan foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzning mavjudligini tasdiqlovchi ko'chirmani yuborishi lozim. Ushbu ko'chirmalar bankning muddati o'tgan qarzlarni o'ndirib olish bo'yicha sud organlariga murojaat etishi uchun asos bo'ladi.

Markaziy bank yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumati qaroriga ko'ra markazlashtirilgan resurslar yohud boshqa mablag'lar hisobidan berilgan yoki ular tomonidan kafolatlangan aktivlarning bankning balansidan chiqarilishi Markaziy bank yohud Hukumat oldidagi qarzlarning bekor qilinishi emas. Bank Markaziy bank yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumati oldidagi qarzlarni xatto agar ushbu mablag'lar hisobidan berilgan kreditlar ilgari tuzilgan kredit shartnomalariga muvofiq to'lanmagan bo'lsa ham qaytarishi shart.

Agar qarzdor balans ortida hisoblanadigan aktiv bo'yicha karzni u hisobdan chiqarilganidan keyin 5 yil davomida to'lasa, u holda ushbu aktiv bo'yicha asosiy qarzlar ham, foizlar ham balansdan tashqari hisobraqamlardan chiqariladi.

Agar qarzdor ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahira barpo etilgan aktiv bo'yicha qarzlar hisobraqamiga to'lasa va qarz tijorat bankining malansidan chiqarilmagan bo'lsa, u holda "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralar" hisobraqami debetlanadi va "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralariga ajratmalar" hisobraqami kreditlanadi.

Agar qarzdor ushbu aktiv balansdan to'liq chiqarilganidan keyin qarzlar hisobraqamiga to'lasa, u holda bank tomonidan "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralar" hisobraqami kreditlanadi, tegishli aktiv hisobraqami, masalan qarzni to'lash uchun pul olinishini aks ettirish kassasi hisobraqami debetlanadi va,

oqibatda, bank tomonidan “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralar” hisobraqami debetlanadi va “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralariga ajratmalar” hisobraqami kreditlanadi, bu bilan shu vaqtgacha balansdan chiqarilgan zararlar bank daromadlari oqimiga qaytariladi.

3.3. Bankning kredit resurslari bazasi kredit portfelini shakllantirish

Bankning Sirdaryo viloyati filialida resurs bazasini shakllantirish ishida ko'proq e'tibor uning diversifikatsiyasiga hamda resurslardan foydalanish samaradorligiga qaratiladi. Jalb qilingan mablag'larni boshqarish deganda, bank resurs bazasini shakllantirish hamda foydalilik nuqtai nazaridan, likvidlikning zarur darajasini saqlagan holda, ularni maqbul aktivlarga joylashtirish maqsadida bo'sh pul mablag'larini sifatli va samarali jalb etish tushuniladi. Passiv bo'yicha majburiyatlar va aktiv bo'yicha talablarni boshqarish masalasi bankning muhim vazifasi bo'lib hisoblanadi. Passivlarni boshqarishning asosiy vazifalariga:

- bank ishonchliligini ta'minlash hamda uning aktiv operatsiyalari hajmini kengaytirish uchun zarur va etarli miqdorda o'z kapitali hajmini aniqlash;

- kapital hajmiga banklarning o'zi va har bir mamlakatning muvofiqlashtiruvchi organlari hamda xalqaro tashkilotlarning o'sib borayotgan talablari nafaqat barqarorlik va ishonchlilik nuqtai nazaridan, balki moliya bozoridagi ishtirokining kengayishi, boshqa hamkorlar biznesi bilan ishlashish yoki qo'shilib ketish bilan ham asoslangandir;

- banklarga mijozlar oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish va aktiv operatsiyalar rivoji uchun zarur bo'lgan resurslarni qidirib topish;

- bank likvidligini ta'minlash hamda "arzon" resurslardan foydalanish hisobiga foyda olish maqsadida muddatli omonatlar va talab qilib olinguncha depozitga pul mablag'larini jalb etish kiradi²³.

Shuningdek, bankning Sirdaryo viloyati filialining aktiv va passivlarni samarali boshqarish quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

²³ Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлари режаси. ЎЗР АВ 773-17-сон билан рўйхатга олинган (янги таҳрири). 2004 й

1. daromadlar va xarajatlar farqi sifatidagi bank marjasi yoki spreadni ko'paytirish va saqlab qolishni ham oladi. Odatda ushbu masala "arzon" resurslar jalb etilishi va ularni nisbatan qimmatroq foizlar ustidan joylashtirilishi orqali hal qilinadi. Kam xarajatli resurslarga talab qilib olinguncha majburiyatlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Mazkur ko'rinishdagi tashkil etuvchining passivlar tarkibidagi salmog'ining o'sib borishi bank foizli xarajatlarini kamaytiradi. SHu bilan birgalikda, talab qilib olinguncha depozitlarini yaqin va uzoq istiqboldagi xajmini bilish qiyinchilik tug'dirmaydi hamda bank resurslaridagi ularning yuqori salmogi likvidlikni kamaytiradi.

2. bank yuqori likvidligining saqlanishiga esa DQMO, qimmatli qog'ozlar, banklararo kreditlarga mablag'lar qo'yilishini iloji boricha ko'paytirish hamda kassa va vakillik hisobvaraklaridagi qoldiqlarni oshirish orqali erishiladi. O'z navbatida, kassa va vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar foydani kamaytiradi, chunki ular daromad keltir-maydigan aktivlar qatoriga kiradi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, ushbu masalaning mohiyati bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan talablarning o'zaro mutanosib-ligini ta'minlashdan iboratdir.

Kredit resurslarining tavakkalchilik hamda daromadlilik darajasi, ssudalar qaytimining ta'minot turiga qarab joylailirishni boshqarishda har bir guruh kreditlarni bankning umumiy kredit qo'yilmalaridagi salmog'i hamda kredit siyosatiga muvofiq ravishda o'zgarishini aniqlanishi muhimdir.

Foiz stavkalari o'zgarishi xataridan himoyalaniшни hal qilish uchun balansning aktiv hamda passiv qismlariga aloqador va foiz stavkalari o'zgaishiga moyil bo'lgan kredit portfelini tashkil etuvchilarga e'tibor qaratish lozim. Kredit va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni qarzga olingan mablag'lar bo'yicha foizli harajatlar kamayishiga qaraganda tez pasayib ketishi sharoitida xavf-xatarlarni kamaytirishning ehtimolli yo'llarini ishlab chiqish talab etiladi.

Foiz stavkalari o'zgarishiga moyil bo'lgan aktivlar va foiz stavkalari o'zgarishiga moyil bo'lgan pasivlar o'rtasidagi muvozanatni saqlab turish zaminida

foiz stavqalarini ko'tarish va pasaytirish, uzoq muddati va qisqa muddatli foiz stavkalari orasidagi nisbatni o'zgartirish kabi funktsiyalar yotadi, chunki bank passivlarining ko'p qismi qisqa muddatli, aktivlarining katta salmog'i esa, so'ndirilishning uzoq muddatlariga egadir.

Kredit resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir etadigan ko'rsat-kichlarni quyidagi ma'lumotlardan iborat amaliy misolda ko'rib chiqishimiz mumkin.

Izoh: jalb etilgan mablag'lar sum-masida bankning o'z resurslari - kapital, depozitlarning barcha turlaridan mablag'lar qoldiqlari, boshqa banklardan jalb etilgan mablag'lar, fondlar - byudjet va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobga olingan. Kredit qo'yilmalari summasida qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli sof ssuda qarzdorligi hisobga olingan (3-jadvalga qarang).

3-jadval

2011 yilda Asaka bank OAJ Sirdaryo viloyati filialida tomonidan jalb etilgan mablag'lardan samaradorligining hisob-kitobi (mln. so'm)²⁴

Ko'rsatkichlar	1.O1.11	1.04.11	1.07.11	1.09.11	1.01.12
1. Bankning resurs bazasi, mln. so'm	197842	171642	225436	293244	173045
shu jumladan,					
1.1. bankning resurs bazasidan Markaziy bankdagi majburiy zaxira fondiga o'tkazilgan mablag'	2857	6405	9690	11353	12936
1.2. Markaziy bankdagi majburiy zaxira fondiden tashqari jalb etilgan mablag'lar	194985	165237	215746	281891	160109
2. Kredit qo'yilmalar summasi mln. so'm	89646	97474	113615	122980	120467
3. Jalb etilgan mablag'lardan foydalanish koeffitsienti, foiz	46	59	53	43.6	75
4. Aktivlar koplanishining absolyut farqi	105339	67763	102131	158911	39642

Keltirilgan 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Asaka" bankda jalb etilgan mablag'larning foydalanish koeffitsienti muntazam ravishda o'sib bormoqda: 2011 yilda u 75,0 foizga o'sdi yoki sof o'sish 29,0 bandni tashkil etdi.

²⁴ Банкнинг Сирдарё вилояти филиалининг 2011 йилдаги бухгалтерия ҳисоби маълумотларидан шартли равишда фойдаланилди.

Inflyatsiya jarayonlari va korxonalarning iqtisodiy holati orqali kredit portfelining sifati banklar barqarorligiga bevosita taʼsir etadi. Yoʻqotilgan ssuda va foizlar, oʻz navbatida, zahiralar va bank kapitalini kamaytiradi.

Pul-kredit siyosatining barcha instrumentlari bank tizimining barqarorligiga turlicha taʼsir etadi. Bevosita taʼsir etadigan instrumentlar salmogʻining koʻpligi ushbu tizimdagi hatarlarning oshishi va barqarorligining pasayishida oʻz aksini topadi. Masalan, moliyaviy aktivlar likvidligining maʼmuriy asosda muvofiqlashtirilishi pul resurslarining bank tizimidan oqib qetishi hamda banklar depozit bazasining pasayishiga olib keladi.

Bozor bahosida toʻlanmaydigan majburiy zaxiralar bank tizimiga qoʻyilayotgan oʻziga xos soliq boʻlib hisoblanadi va ular hajmining oʻsishi banqlar kredit imqoniyatlari hamda likvidliklarini sezilarli darajada qisqartiradi. Pul-kredit cheklovlarining keskinligi nobarqaror banklarning toʻlov qobiliyatlariga putur etkazish mumkin. Aktivlarni diversifikatsiyalash amaliyotida shakllanib borayotgan tendentsiyalaridan biri, bu DQMO qoʻyilmalarining oʻsib borishi hisoblanadi. Ushbu jarayon nafakat aktivlar portfelini oqilona boshqarish bilan, balki qoʻyilmalarni amalga oshirishning boshqa muqobil imkoniyatlarining yoʻkligi bilan bogʻlikdir. Soʻnggi paytlarda kreditlarning kaytmasligi va toʻlovga noqobillik muammolari oqibatida banklar xoʻjalik yurituvchi subʼektlarga kreditlarni istar-istamas takdim etmoqdalar. Mazkur holatning saqlanib qolishi iqtisodiyotning real sektoridan mablagʻlar oqib ketishiga olib keladi.

Zamonaviy sharoitda likvidlilik darajasining ortiqchaligi respublika banklari uchun xosdir. Ushbu holat asosan umumiy iqtisodiy aktivlikning darajasi hamda kreditlarning feydali asosda joylashtirish bozorlarining torayishi bilan bogʻlikdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidalarining koʻp xilligi va oʻziga xos murakkabligi, xoʻjalik jarayonlarining intensivligi va bir maromlilik tijorat banklarining barcha imkoniyat va zaxiralaridan iloji boricha toʻlaroq foydalanishni talab etadi. Bu xususda makro va mikro darajada resurslar bilan taʼminlanish va ularni muvofiqlashtirishning kompleks muammosi muhim rol oʻynaydi.

Shu bilan birgalikda, mijozlar operatsiyalarining qonuniyligi, byudjetga o'z vaqtida to'lovlarining amalga oshirilishi hamda operatsiyalar to'grisidagi ma'lumotlarni soliq va boshqa organlarga takdim etish bo'yicha nazorat funksiyalari zamonaviy sharoitda banklar zimmesiga yuklatilganligini hisobga olish zarur. Banklar tomonidan mazkur funksiyalarning amalga oshirilishi ularga bo'lgan ishonchga putur etkazadi. Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy vositachilikning qisqarishi va investitsiyalar samaradorligining pasayishiga olib keladi. Banklar zimmasiga yuklatilgan ushbu qo'shimcha majburiyatlarni korxona va tashkilotlar faoliyatining qonuniyligi hamda byudjet oldidagi majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish uchun nisbatan kengroq imkoniyat va vakolatlarga ega emas bo'lgan tegishli davlat organlari amalga oshirishi kerak.

Dolzarb muammolardan yana banklar kredit portfellari sifatining pastligi zarar bilan ishlayotgan subyektlarni muntazam ravishda takrorlanib tura digan kreditlash va uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi ishtiroki hamda imtiyozli foiz stavkalari asosida hukumat tomonidan kafolatlangan ssudalarni taqdim etishi bilan bog'likdir.

Resurs bazasida aktivlarni umumlashtirish uslubidan foydalanish ham dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi hamda ushbu holat aktiv-larga qo'yilgan har bir resursdan foydalanish samaradorligini kuzatib borish imkonini bermaydi. Ushbu holat o'z navbatida, bank: aktivlari past daromadlilikining sabablaridan biridir, chunki bank resurslarini joylashlariga aniq, bir hajm sifatida qo'shiadigan ma'lum bir foizlar ustidan jalb etiladi. Ularni joylashtirish esa aniq resursning jalb etilish bahosini hisobga olmagan holda, o'rtacha statistik foiz asosida amalga oshiriladi.

Shu sababli, ishning ushbu holatida jalb etilgan aniq bir resursning daromadlilikini amalda aniqlab bo'lmaydi va bundan tashqari, mazkur resursning rentabelligini ham rejalashtirib bo'lmaydi.

Bundan tashqari, joylashtirilayotgan kredit resurslarning aniq bir qiymati tahlil qilinsa, unda ularning real bahosi nominal bahosidan 3-4 bandga pastligini

ko'rish mumkin. Buning sababi, joylashtirishning nominal bahosi qayta moliyalashtirish stavkasiga bog'langanligidadir va bunda, ushbu baho majburiy zaxira stavkasi, ehtimolli yo'qotishlarga zaxiralarni shakllantirish bilan bog'liq xarajatlar, ustav kapital qiymati hamda soliqlarni hisobga olmaydi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

2010 - 2011 yillarda Asaka bank OAJ Sirdaryo viloyati filiali bo'yicha
joylashtirilayotgan resurslar qiymati (mln. so'm)²⁵

№	Ko'rsatkichlarning nomi	1.01.10.	1.01.11.
1	Daromadlar , shu jumladan:	45499,9	60944,9
a)	Foizli daromadlar	13293,4	21220,9
b)	Ssudalar bo'yicha foiz daromadlari	12466,2	19506,6
v)	Foizsiz va boshqa operatsion daromadlar	32206,4	39724,0
2	Xarajatlar, shu jumladan:	35972	50257,4
a)	Foizli daromadlar	4890,9	11201,2
b)	Ssudalar bo'yicha foiz daromadlari	1603,1	3383,1
v)	Foizsiz va boshqa operatsion daromadlar	31082,8	39056,2
	Shartli doimiy xarajatlar	20689,1	25912,6
	Shartli o'zgaruvchan xarajatlar	15263,7	24344,8
3	Soliq to'languncha qadar bo'lgan sof foyda	14192,1	14725,1
4	Soliq to'langanidan so'ng sof foyda	9527,2	10687,5
5	Shartli doimiy xarajatlarni qoplash uchun mo'ljallangan o'rtacha foiz	20,4	37,0
6	Kredit resurslarini jalb etish bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkasi (foiz)	4,8	16,0
7	Kredit resurslarini joylashtirish bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkasi (foiz)	16,0	16,8
8	Shartli doimiy xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan minimal daromad	18570	45034,7
10	Bankning foizli ssuda marjasi	11,2	0,9
11	Spred (1,25 me'yor bo'yicha)	9,9	0,8

4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bankning Sirdaryo viloyati filialida shartli doimiy xarajatlarni qoplash uchun o'rtacha foiz 37 foizni tashkil etdi va yil boshiga nisbatan 1,8 marta oshdi.

²⁵ Банкнинг Сирдарё вилояти филиалининг 2010-2011 йилдаги бухгалтерия ҳисоби маълумотларидан шартли равишда фойдаланилди.

Kredit resurslarini jalb etish bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkasi 16 foiz, joylashtirish bo'yicha esa 16,8 foiz hajmida shakllangan, ya'ni yil boshiga nisbatan 3,3 va 1,05 marta o'sgan.

Bank marjasi 0,8 band (16,8 - 16,0) hajmida shakllanganiga qaramasdan shartli doimiy xarajatlarni qoplashning o'rtacha foizi 20,2 bandni tashkil etgan va u resurslarni joylashtirish stavkasidan yuqoridir. Ushbu holatda olinmagan foiz daromadlari 23813,8 mln. so'mni tashkil etishi lozim (shartli doimiy xarajatlarni qoplashning o'rtacha foizidan kelib chiqqan holda, bankning minimal daromadi 45034,7 mln. so'mga teng bo'lishi kerak. Haqiqatda olingan foizli daromad 21220,9 mln. so'mni tashqil etgan). Xuddi shunday holat boshqa banklarga ham xosdir.

Bankning Sirdaryo viloyati filialining daromadliligi xizmat ko'rsatilayotgan mijozlari to'lov qobiliyatiga bevosita bog'liqdir. Bunga ayniqsa, qishloq xo'jaligini kreditlash bilan shug'ullanuvchi banklar moyildir, chunki ularning faoliyati tabiiy omillarga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Bankning Sirdaryo viloyati filialining resurslar barqarorligi va likvidlik bilan bog'liq talaygina muammolari mijozlardan kelib chiqqan holda, banklarning tashkarisida vujudga keladi. Haqiqatda ham mijoz-larning likvidlilik muammolari ularga xizmat ko'rsatayotgan banklarning likvidlilik muammolariga aylanadi.

Muammoning mohiyati shundaki, real resurslar (tayyor mahsulot, materiallar, jihozlar va boshqa shu kabilar) harakati ortidan tegishli moliyaviy oqimlar harakat qilmaydi. Iqtisodning real sektori korxonalari orasida paydo bo'layotgan to'lovsizlik holatlari ularning likvidliligini pasaytirgan holda, bank tizimiga ham o'tadi. Chunki, tijorat banklarining o'z mablag'lari depozit-kredit operatsiyalari hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar orqali shakllanadi. Agarda mijozlar foizlarni o'z vaqtida to'lamasa va kreditlarni qaytarmasa, unda bankning resurs bazasi hamda buning oqibati sifatida uning likvidligi pasayadi. Ikkinchidan, banklar to'lovga layoqatsiz bo'lgan mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni o'z mablag'lari hisobiga qoplashga majbur bo'ladi.

Bankning Sirdaryo viloyati filialining likvid mablag'larini boshqa-rish muammolarining mohiyati quyidagi ikki qisqa tushuntirish bilan izohlanishi mumkin: likvid mablag'larga talab kamdan-kam holatlarda ularning maʼlum bir vaqtdagi taklifiga teng bo'ladi. Bank likvid mablag'larning kamomadi yoki ularning keragidan ortiqchaligi bilan ishlashiga to'g'ri keladi; bankning likvidligi va daromadliligi orasida muammo mavjud. Bank resurslarining ko'p qismi likvid mablag'larga bo'lgan talabni qondirish, kam qismi esa - bankning istalgan daromadlilik darajasiga erishish uchun mo'ljallangan (boshqa omillarning o'zgarmasligi holatida). Likvid mablag'larning hajmi xususidagi boshqarish bilan bog'liq qarorlar boshqa xizmat turlari va bankning boshqa tarkibiy tuzilmalari faoliyatidan ayri holda qaralmasligi kerak.

Shunday qilib, bankning Sirdaryo viloyati filialida likvidlikning optimal darajasini ta'minlash bankni boshqarishning doimiy muammosidir va u barcha holatlarda bank daromadliligini oshirishga qaratilgandir.

Xulosa va takliflar

Bank tizimini iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida qo'llab-quvvatlash hozirgi kunning dolzarb masalalarida biriga aylanib qolmoqda. SHu boisdan, butun iqtisodiy inqirozlarning oldini olishda buxgalteriya hisobi va tahlil fanining natijalari ta'siri orqali kuchli bank nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, har bir davlat sektoridagi nazorat mexanizmining zaifligi xalqaro ishonchsizlik bildirishiga olib keladi. Xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan samarali bank nazorati tizimi esa chet el kapitalini jalb qilish va iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Buning uchun, bank faoliyatini kuchli nazorat qilishda buxgalteriya hisobi va tahlil faning ilmiy-nazariy hamda amaliy natijalariga tayanishni taqozo etadi. SHu sababli, mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda bankning kredit resurslari bazasi va kredit portfelini shakllantirish masalalari, ularning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish hamda xalqaro tajribalar talablariga yaqinlashtirish maqsadida mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

– mamlakatimizda iqtisodiy islohatlar amalga oshirilishi natijasi bank tizimida ham muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Natijada, bank faoliyatiga mos operatsiyalar, jumladan, kredit operatsiyalari bilan shug'ullanishlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini qondirishdan iborat bo'lib, bundan o'zlari ham daromad olishlari ko'zda tutiladi. Shu boisdan, bankning kredit operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini mukammal o'zlashtirishlarini taqozo etadi. Bu esa, banklar tomonidan kutiladigan daromadning hajmini oshirishga zamin yaratadi;

– iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida banklarning kapitallashuvi va investitsiyaviy faolligini oshirishda kredit operatsiyalari amalga oshirish va ularning tarkibini mukammallashtirishda moliya bozorida raqobatni kuchaytirish, yangi moliyaviy muassasalar tizimini yaratish, ayniqsa, tadbirkorlik sub'ektlari uchun kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida kredit uyushmalarini

tashkil etishni kengaytirish masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Respublika bank tizimi mamlakatimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, xalq farovonligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli davom ettirish ishiga o'zning munosib hissasini qo'shib kelishi deb e'tirof etish mumkin;

– iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida banklarning kapitallashuvi va investitsiyaviy faolligini oshirishda kredit operatsiyalari kreditlash tamoyillarining talablariga javob berilishi maqsadga muvofiq deb hisoblandi. Bunda, kreditlash tamoyillarining har birida qo'yilgan talablar bajarilgandagina ushbu operatsiyalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz;

– iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bankning kredit resurslari bazasi va kredit portfelini shakllantirish, ularning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va buxgalteriya hisobining milliy hamda xalqaro standartlari, shuningdek, tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalari hisobini tashkil qilish to'g'risidagi yo'riqnoma va nizom talablari asosida tartibga solinishi lozim deb hisoblaymiz. Shuningdek, bankning Sirdaryo viloyati filiali tomonidan ishlab chiqilgan hisob siyosatini doimo takomillashtirib borib, unda kredit operatsiyalari hisobini yuritishning usul hamda qoidalarini belgilab olishlari maqsadga muvofiqdir;

– bankning Sirdaryo viloyati filialida kredit operatsiyalarini hujjatlashtirish mijoz tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarning naqadar to'g'ri va aniqligi bilan izohlanadi. Bunda, mijozdan olinayotgan kredit paketida ularning moliyaviy xo'jalik faoliyatini ob'ektiv baholash imkoniyatini beruvchi auditorning xulosasi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. So'ng kredit bo'limi va komissiyasi chiqargan xulosasiga binoan, kredit shartnomasini qonuniy va me'yoriy hujjatlarda qo'yilgan talablarga asosan rasmiylashtirish talab etish o'rindir;

– ayrim holatlarda bankning Sirdaryo viloyati filialida kredit resurslariga bo'lgan talabning ko'payishi natijasida Markaziy bank tomonidan resurlar kredit shartnomasiga asosan ajratiladi. Bunda tijorat banklari tomonidan olingan kredit

resurslari shartnoma shartlariga muvofiq rasmiylashtiriladi. Ushbu olingan kredit resurslar bo'yicha xarajatlar hisobi (53101, 53106, 54101, 54106 hisobvaraqlarida) bankning Markaziy bankdan olingan (qisqa va uzoq muddatli) kreditlarning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi. Chunki olinayotgan resursdan qanday natija (42201, 42201, 42601, 44301, 44601 hisobvaraqlari bo'yicha) ko'rilishi qiziqtiradi. SHu boisdan, ushbu resurslar bo'yicha foiz to'lovlari va asosiy summaning o'z vaqtida qaytarilishi hamda Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasining me'yorini ham tahlil qilib borish muhim deb hisoblaymiz;

–iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida bankning kreditlar hajmini kengaytirish va olinadigan daromadning hajmini oshirish uchun bankning Sirdaryo viloyati filialida kredit resurslari bo'yicha kredit portfeli bazasini shakllantirish muammolari turadi. Ushbu muammolarni hal etishda bank xodimlaridan yuqori malaka va ishbilarmonlikni talab qiladi. Bunda, bankning likvidli mablag'larini boshqarish muammolari bo'lib, uning mohiyati quyidagi bilan izohlanishi mumkin: likvid mablag'larga talab kamdan-kam holatlarda ularning maʼlum bir vaqtdagi taklifiga teng bo'ladi. Bank likvid mablag'larning kamomadi yoki ularning keragidan ortiqchaligi bilan ishlashiga to'g'ri keladi; bankning likvidligi va daromadliligi orasida muammo mavjud. Bank resurslarining ko'p qismi likvid mablag'larga bo'lgan talabni qondirish, kam qismi esa - bankning istalgan daromadlilik darajasiga erishish uchun mo'ljallangan (boshqa omillarning o'zgarmasligi holatida). Likvid mablag'larning hajmi xususidagi boshqarish bilan bog'liq qarorlar boshqa xizmat turlari va bankning boshqa tarkibiy tuzilmalari faoliyatidan ayri holda qaralmasligi kerak. Likvidlikning optimal darajasini ta'minlash bankni boshqarishning doimiy muammosidir va u barcha holatlarda bank daromadlilikini oshirishga qaratilgandir.

-Sirdaryo viloyati filialida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli "2011-2015 yillarda Respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting

ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori asosida quyidagi chora tadbirlar amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmini 2011-2015 yillarda 2,7 baravarga oshirish;

- xalqaro moliya muassasalari va xorijiy mamlakatlar xukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kredit liniyalari miqdorini oshirish;

- tijorat banklarida imtiyozli kreditlash jamg'armalarini tashkil etish, jamg'arma mablag'larini uzoq hamda borish qiyin bo'lgan joylarda, shuningdek aholi zich yashovchi hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun safarbar etish;

- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni kreditlash hajmini oshirib borish;

- mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni harid qilish uchun aholiga iste'mol kreditlari berishni yanada oshirish va hokazolar.

Shunday qilib, kredit portfeli va ularda kreditlarning buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida erishilgan takliflarimiz bankning Sirdaryo viloyati filiali amaliyoti tadbiriq etilsa, ushbu operatsiyalarning buxgalteriya hisobini xalqaro andozalarga muvofiqlashtirishga, shuningdek, ularning faoliyatini tahlil qilishda muhim ijobiy natijalarga olib keladi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, O'zbekiston. 2001.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. –T.: 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi qonuni.-T.: 1996 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida»gi qonuni. –T.: 1995y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 14 dekabrda R-3539-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat Dasturi
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PP-1213 "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilga investitsion dasturi haqida»gi Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi PQ-670 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 aprelda O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1317- sonli Qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatgichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi PQ-1438 sonli Qarori

10. “Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta’minlashga oid qo‘shimcha chor-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4057-sonli Farmoni. –T.: 28.11.2008y.

II. Prezident asarlari

11. O‘zR Prezidenti I. Karimovning 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi: 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2012 yil 19 yanvar, № 28 (4438).

12. O‘zR Prezidenti I. A. Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi, 2011 yil 22 yanvar, № 16 (5183).

13. Karimov I. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: “O‘zbekiston”. 2009y. -56-bet

14. Karimov I. A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo‘lishi darkor. Xalq so‘zi, 2006 yil 25 fevral.

III. Cohaga oid me‘yoriy hujjatlar

15. O‘zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma. O‘zR AVda 2008 yil 11 iyulda 1834-son bilan ro‘yxatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 3 maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

16. Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo‘riqnoma. [Yangi tahrir]. O‘zR AVda 2008 yil 27 iyunda 1831-son bilan ro‘yxatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 17 maydagi 12/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

17. O'zbekiston Respublikasi banklarida KBTEBning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 15.07.2005 yilda 1496-son bilan ro'yxatga olingan (yangi tahriri).

18. "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi" Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 13.12.2004 yilda 1122-2-son bilan ro'yxatga olingan. (yangi tahriri).

19. "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risida" nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 14.01.2004 yilda 1297-son bilan ro'yxatga olingan.

20. "O'zbekiston Respublikasida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 17.12.2004 yilda 1134-son bilan ro'yxatga olingan. (yangi tahriri).

21. "O'zbekiston Respublikasida nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 14.01.2003 yilda 1199-son bilan ro'yxatga olingan.

22. O'zRMB naqd chet el valyutasiga oid operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 15.04.2004 yilda 957-1-son bilan ro'yxatga olingan.

23. Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobi tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 17.12.2004 yilda 1435-son bilan ro'yxatga olingan.

24. Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 30.01.2004 yilda 1306-son bilan ro'yxatga olingan.

25. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisob varaqlari rejasi. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 13.08.2004 yilda 773-17-son bilan ro'yxatga olingan (yangi tahriri).

26. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom. 02.10.2004.

27. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 28.03.2003 yilda 662-3-son bilan ro'yxatga olingan.

28. Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisobotlari to'g'risidagi Nizom. 19.07.2003 y.

29. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalariga doir qonunchilik hujjatlari to'plami. – O'zbekiston, 2003.

30. Tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 03.08.2000 yilda 953-son bilan ro'yxatga olingan.

31. O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 20.07.1999 yilda 776-son bilan ro'yxatga olingan.

IV. Asosiy adabiyotlar

32. Жумаев Н., Абдурахмонов Қ, Жахон молиявий-иқтисодий инкирози: сабаблар ва уни бартараф этиш муаммолари. -Т.: “Академнашр”, 2011, 156 бет.

33. Abduvaxidov F.T. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. –Т.: “Iqtisodiyot” nashriyoti. 2010. 242 bet.

34. Маҳмудов Н.М, Маджидов Ш.А. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2010. – 86 б.

35. Климович В.П. Основы банковского аудита: учеб. – М.: ФОРУМ, 2010. – 192 с.

36. Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009 – 656с.

37. Ендовицкий Д.А. Учет ценных бумаг: Учебное пособ. - 2-е изд стер.- М.: КНОРУС, 2009.- 336 с.

38. Воронин В.П. и др. Учет ценных бумаг: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 336 с.

39.Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазовой, Л. Кроливецкой - СПб: Питер, 2008. - 400с.

40.Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К », 2008. – 288 с.

41.Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в комерческом банке. -Москва.: 2008, стр. 209

42.Муругова И.А. Операционная техника и учет в банках. Учебный пособие. –Т.: ТФИ, 2008. -36 стр

43.Усатова Л.В., Серошин М.С. Бухгалтерский учет в комерческих банках. -Москва.: 2007, стр. 399.

44.Усатова Л. В., Сероштан М. С, Арская Е. В. Бухгалтерский учет в коммерческих банках: Учеб. пособ. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: «Дашков и К°», 2007. — 404 с.

45.Мощенко Н.П. Международные стандарты учета и финансовой отчетности: Учеб. пособие. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 272 с.

46.Шпаков Л. В., Барулина Е. В. Бухгалтерский учет как пользоваться МФСО. «Альфа-Пресс». –М.: 2006. -37 с

47.Маренков Н.Л. Международные стандарты бухгалтерского учета, финансовой отчетности и аудита в Российских фирмах. - М.: Едиториал УРСС, 2005. - 143 с.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

48.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o’rganish bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010.

49.Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. O'zbekistonning 19 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida jamiyatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning dadil odimlari va muvaffaqiyatlari: talaba yoshlar va keng

jamoatchilik bilan uchrashuvlarda foydalanish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy mavzuda ilmiy-ommabop risola. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010. - 148 bet.

50.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2010. – 146 bet.

51.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, T.: “Iqtisodiyot” 2010.

52.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU. Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliev. –T.: Iqtisodiyot, 2009. -120 b.

53.Подольский В.И., Савин А.А. Аудит: учебник. – М.: Юрайт, 2010.– 605с.

54.Двадцать вторые международные Плехановские чтения. Тезисы докладов. –Москва.: 2009, 10 апреля 2009г

55.Мерцалова А.И. Учет операционная деятельность в кредитных организациях: кассовые, расчетные, депозитные и кредитные операции: учебное пособ.- М.:КНОРУС, 2009.- 356 с.

56.Жарковская. Е.П. Банковское дело: Учеб. - М: «ОМЕГА -Л»,2008 – 476 с.

57.Курсов В.Н., Яковлев Г.А. Бухгалтерский учет в коммерческом банке: Новые типовые бухгалтерские проводки операций банка: Учеб. пособ. — 10-е изд., испр. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2008. — 277 с.

58. Черкасов В.К. Финансовый анализ в коммерческом банке. Учебное пособие для вузов. - М.: Изд. «Консалтбанкир», 2006. - 320 с.

59. Умаров З. Тижорат банкларида молиявий натижалар ҳисоби ва таҳлилининг назарий-услубий масалалари. –Т.: ЎзР Банк-молия академияси. ном. дисс. 2010. -132 бет

60. Мукумов З. Инновацион фаолият харажатлари ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш масалалари. –Т.: ЎзР Банк-молия академияси. ном. дисс. 2010. -143 бет

61. ЎзРда иқтисодий таҳлил ва аудитнинг ривожланиш муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари.-Т.: ТДИУ нашриёти. 2001 й.

62. “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривож, истикболлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. Анд МИИ “Андижон” 2011.

63. Мамлакат иқтисодиётини инновацион ривожлантириш шароитида тижорат банкларининг молиявий барқарорлиги мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Т.: Банк молия академияси. Молия нашрияти. 2010 й.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

64. «Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси» журнал. –Т.: 2007-2012 йиллар

65. «Бозор, пул ва кредит» журнал. –Т.: 2007-2012 йиллар

66. Ўзбекистоннинг 2010 йилдаги ижтимоий-иқтисодий ривожланиши кўрсаткичлари. –Т.: Ўзбекистон, 2011.

VII. Internet saytlari.

67. www.bankclub.ru/rankings-bk.htm Po aktivam

68. www.bankclub.ru/rankings-bkp.htm Po kapitalu

69. «Norma» 2012.

70. “Pravo” 2012.

